MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM 2022

MENING

MUVAFFAQIYAT YO‘LIM

BIOGRAFIK ENSIKLOPEDIYASI

2022

MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM

BIOGRAFIK ENSIKLOPEDIYASI

2022-YIL TO‘PLAMI

Toshkent 2022



Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz!

Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz!

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

UDK: 37.0
KBK: 74.00
U-94

“Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik ensiklopediyasi. – T.: Science and Innovation. 2022. - 97b.

Ushbu kitobda yurtimizda olib borilayotgan islohatlarni amalga oshirishda o‘z kuch g‘ayrati bilan mehnat qilayotgan tashabbuskor insonlarning muvaffaqiyatga erishish yo‘llari yoritib berilgan. Ilm-fan, ta’lim, san’at, tibbiyot, sport, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan muvaffaqiyatli insonlar biografiyasi jamlandi.

Kitob keng kitobxonlar o’qishiga mo’ljallangan.

© “Science and innovation” MChJ, 2022

https://successful.uz



RUSTAMOV BAXTIYOR NORMAMATOVICH

“Science and Innovation” MChJ Bosh direktori

- “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali Bosh muharriri.
- “O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi” loyihasi rahbari.
- Plagiarism.uz – ilmiy ishlarni antiplagiatga tekshirish xizmati asoschisi.
- 30 dan ortiq avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini yaratgan.
- 10 dan ortiq patentlar va 30 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi.
- Ilmiy konferensiyalar tashkilotchisi.

Rustamov Baxtiyor Normamatovich 1990 yilda Samarqand viloyati Narpay tumanida tavallud topgan. Oilali va 3 nafar farzandning otasi. Toshkent shahri Sergeli tumanida istiqomat qiladi.

B.Rustamov – “Science and Innovation” MChJ Bosh direktori, “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali bosh muharriri, “O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi” loyihasi rahbari, “Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik ensiklopediyasi tashkilotchisi, Plagiarism.uz - ilmiy ishlarni antiplagiatga tekshirish platformasi asoschisi va ko‘plab ilmiy konferensiyalar tashkilotchisi.

Dasturchi bo‘lish orzusi, uni dastlab Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga olib keldi. 2008 - 2012 yillar oralig‘ida universitetning “Informatika va axborot texnologiyalari” yo‘nalishida ta’lim oldi. Yangi bilimlar o‘rganish maqsadida u qo‘shimcha kurslarda ham o‘qidi. 2011 yilda “Yosh dasturchilarni tayyorlash va qo‘llab quvvatlash” markazida 3 oylik “.Net Freamwork 2.0 asosida veb dasturlarini yaratish” kursini tamomladi. Shuningdek, Rossiyaning «ИНТУИТ» onlayn universitetining bir qancha kurslarida o‘qidi. 2012 yilda Koreya Axborot texnologiyalari markazida Koreyalik proffessordan dasturlashni o‘rgandi.

U “Moliyaviy savodxonlik asoslari” kursini va “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi doirasida «Full Stack Development Track» kurslarini ham tamomlagan. B.Rustamov loyihalarni boshqarish bo‘yicha bilim va malakasini oshirish maqsadida “O‘zgarishlarni boshqarish” va “Fasilitatsiya bilimlari” trening kurslarida ham qatnashdi.

2012 yilda B.Rustamov O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida yetakchi mutaxassis lavozimida ish faoliyatini boshladi.

Bilim olishga va ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi, uni magistratura bosqichida ta’lim olishga undadi. 2012 - 2014 yillar davomida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining magistratura bosqichida o‘qidi.

2013 yil B.Rustamov tajriba orttirish

maqsadida “Fido-Biznes” kompaniyasi “Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini loyihalash va yaratish” departamentiga dasturchi bo‘lib ishga kirdi. B.Rustamov bu tashkilotda dasturchi, 2-toifali dasturchi va Gurux rahbari lavozimlarida faoliyat yuritdi.

U Respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ko‘plab tanlov va tadbirlarda g‘olib va sovrindorlar safidan joy oldi.



2014 yilda o‘tkazilgan «Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o‘rni» mavzusidagi Respublika ilmiy anjumanida o‘z ilmiy loyihasi bilan ishtirok etdi, hamda “**Eng yaxshi innovatsion g‘oya**” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.



2015 yilda Respublika miqyosida o‘tkazilgan Milliy internet tanlovida o‘zining internet nashri bilan qatnashib, «**Davlat tilidagi eng yaxshi sayt**» nominasiyasi g‘olibi bo‘ldi. Tanlovda diplom va noutbuk bilan taqdirlandi.

2020 yilda B.Rustamov o‘z sohasida erishgan yutuqlari, malakali mutaxassis sifatida juda ko‘plab loyihalarni muvaffaqiyatli bajargani va ish faoliyatidagi tashabbuskorligi, mehnatsevarligi uchun “**Yilning eng yaxshi xodimi**” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi.



B.Rustamov doimo sport bilan shug‘ullanib keladi. U 2021 yil 28-mart kuni 3-Toshkent xalqaro marofonida ishtirok etib, musobaqaning finisher medaliga ega bo‘ldi. Bundan tashqari ko‘plab sport musobaqalarida qatnashdi.

2021 yil dekabr oyida o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligiga bag‘ishlangan “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” shiori ostidagi “**Eng yaxshi maqola**” tanlovida g‘olib bo‘ldi, 1-darajali diplom va sertifikat bilan taqdirlandi.

2022 yil 27 mart kuni Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar o‘rtasida o‘tkazilgan yarimmarofonda ishtirok etdi.

2022 yil aprel oyidan B.Rustamov “**Science and Innovation**” xalqaro ilmiy jurnalida **Bosh muharrir** sifatida ham ishlay boshladi. Uning tashabbusi bilan jurnalga qabul qilingan har bir maqola uchun DOI raqam olinib, maqolalar Yevropaning Zenodo ilmiy bazasiga joylashtirila boshlandi. Shuningdek, jurnal rasmiy sayti **scientists.uz** sayti ham ishga tushirildi. U Gruziyaning “Universal Impact Factor” xizmati bilan “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnalini baholash uchun kelishuvga erishdi. Jurnal impakt faktori 8.2 ko‘rsatkich bilan bohalandi. Keyinroq, B.Rustamov “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnalini O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Attestatsiya Komissiyasi tavsiya etgan jurnallar ro‘yxatida keltirilgan Polsha davlatining “Index Copernicus” ilmiy bazasida ro‘yxatdan o‘tkazdi va chop etilgan barcha maqolalarni ushbu ilmiy bazaga joylashni boshladi. B.Rustamov rahbarligidagi “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali va Rossiyaning “Cyberleninka” ilmiy bazalari o‘rtasida shartnoma imzolashga erishildi. Hozirda jurnalni Web Of Science va Scopus bazalarida indekslash uchun amaliy ishlar bajarilmoqda.



B.Rustamov ilmiy, ilmiy-ommabop va ensiklopedik nashrlar chop etish uchun noshirlik litsenziyasini oldi va “**O‘zbekistonning taniqli olimlari**” ensiklopediyasining 1-tomi va “**Mening muvaffaqiyat yo‘lim**” biografik ensiklopediyalarini nashr qildi.

2022-yil 14-15-oktabr kunlari B.Rustamov Bosh muharrirligidagi “Fan va innovatsiyalar” xalqaro ilmiy jurnali hamda Toshkent davlat agrar universiteti hamkorligida “Barqaror o‘rmonchilik” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumani tashkillashtirildi.



2022 yil 30 noyabr kuni B.Rustamov rahbarligida “**O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari**” mavzusidagi ko‘p tarmoqli, xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.



2022 yil 20 dekabr kuni B.Rustamov tashabbusi bilan O‘zbekiston Milliy akademik Drama teatrida “**Olimlar bayrami**” deb nomlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda 400 dan ortiq O‘zbekistonning taniqli olimlari, vazirlik va tashkilot rahbarlari ishtirok etdilar. Tadbir davomida “O‘zbekistonning taniqli olimlari” ensiklopediyasi 1-tomi va “Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik ensiklopediyalari taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, “**Ilm-fan targ‘ibotchisi**” va “**Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar yetakchisi**” esdalik ko‘krak nishonlari o‘zining munosib egalariga topshirildi. Tadbir kuy-qo‘shiqlar va olimlar intervyulari bilan juda qizg‘in bo‘lib o‘tdi. Shuningdek u 3 ta telekanal va ko‘plab internet nashrlarida yoritildi. Tadbir davomida B.Rustamov so‘zga chiqdi va telekanal muxbirlariga ham intervyular berdi.



B.Rustamov **taniqliolimlar.uz, successful.uz, ilmiyanjumanlar.uz** portallarini ishga tushirdi va ko‘plab ilmiy tadqiqot institutlari va OTMlarning ilmiy anjumanlarini o‘tkazishda hamkorlik qildi.

B.Rustamov haqidagi ma’lumotlar

“**Eng yaxshi ilmiy izlanuvchilar - O‘zbekiston**”, “**Ilm-fan fidoiylari**”, “**O‘zbegim iftixorlari**” va “**Mening muvaffaqiyat yo‘lim**” kitoblariga ham kiritilgan.



B.Rustamov shaxsiy rivojlanish, biznes va tadbirkorlik bo‘yicha ko‘plab trening-kurslarda qatnashib, tadbirkorlik sohasida ham o‘z bilimini oshirib kelmoqda. Shuningdek, u axborot texnologiyalari sohasida mustaqil ilmiy izlanishlar ham olib bormoqda.



U buxgalteriya, bank, tibbiyot, ilm-fan va boshqa sohalar uchun dasturiy mahsulotlar yaratishga muvaffaq bo‘ldi.



B.Rustamovning 30 ga yaqin ilmiy maqolasi nufuzli ilmiy jurnallarda va ilmiy anjumanlar to‘plamlarida chop etilgan. U va u boshchiligidagi jamoa 30 dan ortiq avtomatlashtriligan axborot tizimlari yaratgan. Uning 10 dan ortiq dasturiy mahsulotlar uchun olingan patentlari mavjud. B.Rustamov boshchiligida yaratilgan loyihalar, dasturiy mahsulotlar minglab insonlarning ish faoliyatini yengillashtirib, ularning samaradorligini oshirishda xizmat qilib kelmoqda.

Hozirda u “Science and Innovation” MChJ Bosh direktori lavozimida ishlab kelmoqda. U boshchiligidagi jamoada 30 ga yaqin xodimlar faoliyat yuritadi.




XUJANOV ERKIN BERDIYEVICH

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Fizika-matematika fakulteti “Fizika va uni o’qitish metodikasi” kafedrasi mudiri
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi ta’lim sohasi bo‘yicha Ekspert guruhi a’zosi

Xujanov Erkin Berdiyevich 1989-yilda Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumanida tug‘ilgan. 2012-yilda Toshkent viloyati davlat pedagogika institutining Fizika va matematika fakulteti Fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishini, 2014-yilda Toshkent davlat pedagogika universiteti Fizika o‘qitish metodikasi magistratura mutaxassisligini tamomlagan. E.Xujanov 2014-yildan Nizomiy nomidagi TDPU «Fizika-matematika» fakulteti «Fizika o‘qitish metodikasi» kafedrasida ish faoliyatini boshlagan. Hozirgi kunda “Fizika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri lavozimidan ish faoliyatini boshlagan. O‘tgan davr mobaynida har bir ishga mas’uliyatli shaxs, mohir pedagog ekanligini namoyon etdi. Xususan, kafedra professor-o‘qituvchilari va talabalar bilan samimiy munosabati, mutaxassislik fanlarini yaxshi o‘zlashtirganligi hamda darslarni tashkil etishdagi yuqori natijalari bilan ajralib turadi. E.B.Xujanov kafedra o‘quv jarayonini me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlashda ishtirok etadi. 5110200 - Fizika va astronomiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va 5A110201 – Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (fizika va astronomiya) mutaxassisligi uchun namunaviy o‘quv reja, malaka talablarini ishlab chiquvchi ishchi guruh a’zosi sifatida faol ishtirok etadi.



U 2020-yilda 13.00.02 – Ta’lim va

tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo‘yicha «Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida fizik tushunchalarni statistik metod asosida shakllantirish»



mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgdi va pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ldi.

Uning ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 2 ta o‘quv qo‘llanma, 6 ta metodik qo‘llanma, 70 dan oshiq ilmiy maqola va tezislar nashr etilgan. Shulardan 16 ta ilmiy-metodik maqolalari O‘zbekiston Respublikasi OAK e’tirof etgan jurnallarda chop etilgan.

2020-yil 17-yanvarda O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.01.09 raqamli ilmiy kengashda 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo‘yicha «Umumiy o‘rta ta’lim



maktab o‘quvchilarida fizik tushunchalarni statistik metod asosida shakllantirish» mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. Shu kungacha 70 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan.

E.Xujanovning ilmiy, o‘quv-uslubiy ishlari e’tiborga olinib 2022-yilda dotsent ilmiy unvoni berildi. 2020-yilda uning rahbarligida 5110200-Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi 4 bosqich talabasi Yuldasheva Bonu Aybek qizi Islom Karimov Davlat stipediyasining 2020-2021 o‘quv yilidagi tanlovi g‘olibi bo‘ldi. E.B.Xujanov kafedra faoliyatidan tashqari grant loyihalari doirasida ilmiy izlanishlar olib boradi. Guliston davlat universitetida 2015-2017-yillarda A-1-26 “Uzluksiz ta’lim tizimida fizika o‘qitishni ehtimoliy-statistik



g‘oya va tushunchalarini shakllantirish asosida takomillashtirish va unga oid uslubiy qo‘llanma tayyorlash” (2015-2017 yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida katta ilmiy xodim lavozimida belgilangan vazifalarni bajargan.

U mutaxassis sifatida o‘z fanini chuqur biladi va malakasini oshirish uchun o‘z ustida ishlaydi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llab, mashg‘ulotlarni tashkil etishda axborot texnologiyalardan

foydalanish kompetentligi va mahoratini namoyon qilib kelmoqda.

E.Xujanov o‘z faoliyati davomida talabalarga dars berish va tarbiyaviy ishlar olib borishdan tashqari, jamoat ishlarida, ya’ni universitet va fakultetda tashkil etiladigan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib keladi.



Shuningdek, akademik litseylar va o‘rta umumta’lim maktablari bilan muntazam aloqada ish olib boradi. XTV qoshidagi respublika o‘quv uslubiy kengashida fizika fani bo‘yicha guruh a’zosi, qator yillardan buyon Toshkent shahri va respublikada bilimlar bellashuvi, fan olimpiadalarida hay’at a’zosi sifatida qatnashib keladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinf Fizika, 1-sinf yangi Tabiiy fanlar, 2-sinf yangi Tabiiy fanlar darsliklarida taqrizchi, Milli o‘quv dasturi mualliflarda a’zo, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi ta’lim sohasi bo‘yicha Ekspert guruhi a’zosi hisoblanadi.



E.Xujanovning ilmiy rahbarligida 6 nafar bitiruv malaka ishlari, 1 nafar magistrlik dissertatsiyasini shogirdlari muvaffaqiyatli himoya qilgan. Bugungi kunda 2 nafar falsafa doktori, 2 nafar magistrlik dissertatsiyasi, 3 nafar bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarlik qilmoqda.

E.B.Xujanov 2022-yil 21-noyabrdan 2022-yil 3-dekabrga qadar Fransiyaning Vishi shahri “Kavilam” o‘quv markazida “STEM fanlarni fransuz tilida o‘qitish” mavzusidagi o‘quv seminarlarida qatnashib, malaka oshirib keldi.



XOLMAMATOV DIYOR HAQBERDIYEVICH

Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Marketing” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi, Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori

- "Tijorat faoliyati" fanidan o‘quv qo’llanmasi (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2020-yil 16-yanvardagi 5-son bayonnomasiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan) hammuallifi.
- Marketing ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi talabgorlardan mutaxassislik fanlardan imtixon oluvchi komissiya raisi.
- U tomonidan yaratilgan o‘quv, ilmiy va uslubiy ishlaridan talabalar kurs ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanmoqda.

Xolmamatov Diyor Haqberdievich 1981-yil 4-oktabrda tug’ilgan. Millati o’zbek. 2002-yil Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Marketing" bakalavr ta’lim yo‘nalishini va 2004-yil "Tovarshunoslik va tovarlarning tijorat ekspertizasi" magistratura mutaxassisligini tugatgan.

2003-yildan buyon Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Marketing" kafedrasining katta laboranti, assistenti, katta o’qituvchisi, v.b. dotsenti lavozimlarida ishlagan.

2020-yil 29-avgustdan "Marketing" kafedrasi mudiri vazifasini bajaruvchi lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xolmamatov Diyor Haqberdievich "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida ulgurji savdoda marketingning servis strategiyasini takomillashtirish" mavzusidagi falsafa doktorlik dissertatsiyasini Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi 08.00.11 - "Marketing" ixtisosligi bo’yicha DSc.27.06.2017.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashda himoya kilgan. Umumiy ish staji -21 yil, ilmiy pedagogik ish staji – 17 yil. 1998-2002-yillarda Samarqand kooperativ instituti talabasi (bakalavr). 2002-2004-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi (magistr). 2003-2004-yillarda Samarqand kooperativ instituti "Marketing" kafedrasi katta laboranti 2004-2018-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis institutining “Marketing” kafedrasi assistenti. 2018-2020-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasining katta o‘qituvchisi. 2020-2021-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Marketing” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi.

2020y 29-avgustdan hozirgacha Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasi mudiri vazifasini bajaruvchi.

Har o‘quv yilida 5A230401- Marketing (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) magistratura mutaxassisligining 2 nafar magistrantining ilmiy pedagogik faoliyati va malakaviy pedagogik amaliyotiga (50 soat), ilmiy tadqiqot ishiga rahbarlik (50 soat) qilib keladi. D.X.Xolmamatov tomonidan olib borilayotgan darslarning tahlili uning darsda zamonaviy o’qitish usullaridan, ya’ni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan hamda multimediya vositalaridan faol foydalanib kelayotganligini ko’rsatdi. Xususan, o‘tiladigan mashg’ulotlar tahlilida "Keys stadi", "Aqliy hujum", "Klaster", "Blits- so’rov", "Sinkveyn", "Venn diagrammasi", "Rezyume", "BBB", "T jadvali", "Besh minutlik esse", "FSMU" kabi interfaol usullardan samarali foydalanib kelishi ma’lum bo’lgan.



D.X.Xolmamatov har bir mavzu bo’yicha ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni taqdimot-slaydlar, tarqatma materiallardan foydalangan holda olib boradi. Xolmamatov Diyor Haqberdievich tomonidan tayyorlangan va chop etilgan amaliy mashg’ulot va kurs ishlarini bajarish, malakaviy amaliyotini o’tash va hisobotlarni tayyorlash bo‘yicha o’quv-uslubiy ishlari talabalarga chuqur bilim berishda va mashg’ulotlarni samarali olib borishda, o‘quv jarayonini uslubiy jihatdan ta’minlashda o‘z hissasini qo’shmoqda. Shuningdek, institutda o‘tiladigan fanlardan zamonaviy o’quv - uslubiy dasturlar va majmualar tayyorlashda faol ishtirok etib kelmoqda. D.X.Xolmamatov tomonidan yaratilgan o‘quv, ilmiy va uslubiy ishlaridan talabalar kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanmoqda.

Xususan, i.f.n., dotsent Sh.J.Mamatqulova bilan hammualliflikda tayyorlangan "Tijorat faoliyati" fanidan o‘quv qo’llanmasi (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2020-yil 16-yanvardagi 5-son bayonnomasiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan), assistentlar S.K.Boyjigitov, Sh.Sh.Norkulovalar bilan hammualliflikda tayyorlangan "Internet marketing" fanidan o’quv qo’llanma (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2021-yil 11-yanvardagi 7-son bayonnomasiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan), "Marketingda narx siyosati" fanidan 5A230401 - Marketing (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2021-yil 11-yanvardagi 7-son bayonnomasiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan) o‘quv jarayonida keng foydalanib kelinmoqda.

D.X.Xolmamatov respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalari uchun yuqori malakali marketing mutaxassisligi kadrlarini tayyorlashda faol mehnat qilish bilan birga o’quv-uslubiy jarayonini tashkil etish, ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, ilmiy-uslubiy jarayonni tashkil etish, ta’lim va ilmiy tadqiqot uzviyligini ta’minlash borasida Fidokorona mehnat qilib kelmoqda. O‘tkazilgan so‘rovlar Xolmamatov Diyor Haqberdievich o‘z kasbini sevadigan, hurmatga sazovor va yuqori saviyali pedagog ekanligini ko’rsatdi va ishi ijobiy baholandi.

D.X.Xolmamatov pedagogik faoliyat bilan birga jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. U institut miqyosida o‘tkaziladigan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarida faol ishtirok etib, talabalarni turli tadbirlarda ishtirok etishi uchun amaliy yordam ko’rsatib keladi.

U muntazam ravishda ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Maxkamasi Qarorlari mazmuni bilan talabalarni va keng aholini tanishtirib borishda ham faol o‘qituvchilardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi va undan kelib chiqadigan vazifalarni keng jamoatchilikka targ’ib qilishda faol ishtirok etdi.

D.X.Xolmamatov muntazam ravishda akademik guruhlarga murabbiylik qilib kelmoqda. Institut murabbiylar Kengashi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida har haftada murabbiylik soatlarida talabalarga doimiy ravishda ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni yuqori saviyada olib boradi.

D.X.Xolmamatov 08.00.11-Marketing ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi talabgorlardan 2020-yil mutaxassislik fanlardan imtihon oluvchi komissiya raisi sifatida qatnashdi.

D.X.Xolmamatov Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tadqiqotchisi Gafurov Aziz Tulqunovichning "Shisha sanoati mahsulotlarini differensiatsiyalash strategiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi 08.00.13. "Menejment" ixtisosligida iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferatiga Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi Xodjayeva Shodiyabonu Abitjanova "Korxonalarda marketingni tashkil etish samaradorligini oshirish (agrosektor korxonalari misolida) mavzusidagi 08.00.11-Marketing, 08.00.04-Qishloq xo’jalik iqtisodiyoti tutash ixtisosliklarida iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferatida, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tadqiqotchisi Eshmatov Sanjar Azimkulovich tomonidan “Mahalliy brendni shakllantirishning marketing strategiyasi (sut va sut maxsulotlari misolida)" mavzusida 08.00.11. "Marketing" ixtisosligida iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferatlariga taqrizlar berilgan.



D.X. Xolmamatov 2020-yilning IV-chorakidan institutning mustaqil izlanuvchilikka (DSc) qabul qilindi (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektorining 2020-yil 20-noyabrdagi 428/1- F sonli buyrug’i). "Ulgurji rivojlantirishning metodologik marketing logistikasini asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy-talqiqot ishlarini olib bormoqda.



USMONOVA DILFUZA ILXOMOVNA

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Marketing kafedrasi dotsenti,
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori

- “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda marketing tizimidan samarali foydalanish hamda unda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirish muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkiliy qo‘mitasining a’zosi bo‘lgan.
- 2005-yildan buyon 32 nafar talabaning bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilgan.

Usmonova Dilfuza Ilxomovna Marketing kafedrasining dotsenti. Usmonova Dilfuza Ilxomovna 1981-yilda tug‘ilgan, o‘zbek. 2001-yil Samarqand kooperativ institutining “Marketing” mutaxassisligi bakalavr darajasiga ega bo‘lgan.

2003-yil Samarqand kooperativ institutining “Marketing” mutaxassisligi bo‘yicha magistr darajasiga ega bo‘lgan. 2018-yil 14-dekabrda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi 08.00.05 - “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Повышение эффективности оказания торговых услуг сельскому населению (на примере Самаркандской области)” mavzusida falsafa doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

2019-yil 31-yanvar OAKning (01№001291) 261/1-sonli bayonnomasiga asosan Usmonova Dilfuza Ilxomovna iqtisodiyot fanlari falsafa doktori ilmiy darajasini oldi.

2019-yil 20-dekabrdan boshlab Samarqand iqtisodiyot va servis institutining “Marketing” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi lavozimiga o‘tkazildi.

Umumiy ish staji 18-yil, ilmiy va pedagogik ish staji 16-yil.

2005-yildan buyon Samarqand iqtisodiyot va servis institutida ishlab kelmoqda.-18.12.2003-02.09.2005-Samarqand iqtisodiyot va servis institutining maqsadli aspiranturasiga ishlab chiqarishdan ajralgan holda “Marketing” mutaxassisligi bo‘yicha qabul qilindi; - 02.09.2005-21.06.2014 – “Marketing” kafedrasi assistenti; - 21.06.2014 - 20.12.2019 – “Marketing” kafedrasi katta o‘qituvchisi; - 20.12.2019-h.v.- “Marketing” kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchi.

Usmonova Dilfuza Ilxomovna 2005-yildan buyon Bank - moliya xizmatlari, Iqtisodiyot va menejment, Servis va turizm fakultetlarining 5230600-Moliya, 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit, 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 5230200-Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 5230400-Marketing (tarmoqlar va

sohalar bo‘yicha), 5610100-Xizmatlar sohasi (restoran ishi) 5610200-Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish, 5610300-Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga “Marketing”, “Xalqaro marketing”, “Restoran ishida marketing”, “Marketing tadqiqotlari”, “Brendni boshqarish”, “Innovatsion marketing”, “Marketingni boshqarish” fanlaridan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib bormoqda.



Usmonova Dilfuza Ilxomovna pedagogik faoliyati davomida bir qator fanlardan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib bormoqda. Jumladan, bakalavr ta’lim yo‘nalishlariga Innovatsion marketing, Marketing, Marketing tadqiqotlari, Marketingni boshqarish fanlaridan 2019-2020 o‘quv yilida “Marketing” fanidan 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishida (80 soat), 5230200 – “Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha),” (80 soat), 5230400 – “Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”(128 soat),ta’lim yo‘nalishlarida , “Marketing” fanidan barcha ta’lim yo‘nalishlarida hamda fanidan (36 soat) ma’ruza va(36 soat) seminar mashg‘ulotlari olib borgan. Shu bilan birgalikda 32 nafar talabaning bitiruv malakaviy ishiga va 40 nafar talabaning bitiruv oldi amaliyotiga rahbarlik qilgan. 2019-2020 o‘quv yilida 2-kurs va 3-kurs “Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishlari talabalariga “Marketing” va “Marketing tadqiqotlari” fanlaridan kurs ishlariga rahbarlik qilgan.

Usmonova Dilfuza Ilxomovna ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tmoqda. Uning pedagogik mahorati o‘quv-uslubiy bo‘limi, institutning ta’lim sifatini nazorat qilish hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limlar tomonidan muntazam o‘tkazib kelinadigan “Pedagog – talaba nigohida” so‘rovnomalarida talabalar tomonidan yaxshi baholangan. Kafedra professor-o‘qituvchilari jamoasi, fakultet ilmiy-uslubiy Kengashi a’zolari va institut o‘quv-uslubiy kengash xodimlari Usmonova Dilfuza Ilxomovna ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarini olib borish faoliyatini tahlil qilib, uning pedagogik faoliyatiga yuqori baho bergan. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik va uslubiy yutuqlardan samarali foydalanib kelayotganligini alohida ta’kidlangan.

Dars mashg‘ulotlarini “ZiyoNet” axborot-resurs portali materiallaridan foydalangan holda o‘tkazishda va talabalar bilan o‘quv-tarbiyaviy, ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazishda tashkilotchi va faol pedagogdir.



Muntazam ravishda ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari mazmuni bilan talabalarni va keng aholini tanishtirib borishda ham faol o‘qituvchilardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomalaridan kelib chiqadigan vazifalarni keng jamoatchilikka targ‘ib qilishda faol ishtirok etdi. Xususan, 2018-yil 6-yanvar kuni Samarqand viloyati Urgut tumani agrosanoat va servis kasb-hunar kolleji, 2020-

yil 2-fevral kuni Charxin iqtisodiyot kasb-hunar kollejida bo‘lib, ma’ruzalar qildi.



Usmonova Dilfuza Ilxomovna 2021-yil 13-yanvar kuni “O‘zbekiston Qurolli kuchlarining tashkil topganligining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan institutimizda tashkillashtirilgan davra suhbatida, “Ogohlik – davr talabi” tadbiri doirasida bo‘lib o‘tgan “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash” mavzusidagi davra suhbatida faol ishtirok etdi. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi” mavzusida bakalavr bosqichi talabalariga ma’ruzalar o‘qib, rivojlanish strategiyamiz bo‘yicha kerakli ma’lumotlar berdi.Usmonova Dilfuza Ilxomovna institut miqyosida tashkillashtirilgan xotin-qizlar o‘rtasida sport musobaqalarini tashkil etish va terma jamoalarni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlarni olib bormoqda. SamISI fakultetlar kesimida har haftaning payshanba kunida bo‘lib o‘tadigan “Ma’naviyat kuni” tadbirlarida mafkuraviy tarbiya ishlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining



Farmonlari, Qarorlari bo‘yicha MR-220 akademik guruhiga murabbiylik asosida tushuntirish ishlari olib boradi. Shuningdek, fakultet miqyosida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasini tuzish va amalga oshirishda faol ishtirok etadi. Samarqand shahrining bir qator mahallalarida, xususan, “Sharq” MFYda tadbirlarda faol ishtirokchisi. Usmonova Dilfuza Ilxomovna Samarqand shahar “Sharq” mahalla fuqarolar yig‘inida aholi o‘rtasida ma’rifiy, ma’naviy-mafkuraviy muhitni yanada yaxshilash va rivojlantirish borasida ko‘plab davra suhbatlari, uchrashuvlarda ishtirok etgan. SamISI miqyosida olib borilayotgan yoshlar siyosati yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlarida faol ishtirok etadi. Yoshlar o‘rtasida diniy, ma’rifiy, ma’naviy-mafkuraviy muhitni yanada yaxshilash va rivojlantirish borasida ko‘plab davra suhbatlari,

uchrashuvlar, ma’ruzalarda ishtirok etgan. Xususan, 2019-yil Samarqand moliya va iqtisodiyot kolleji va Charxin ijtimoiy iqtisodiy kasb-hunar kollejida davra suhbatida ishtirok etgan. 2020-yil yanvar-fevral oylarida “Samarqand Apparel XK MCHJda” stajirovka o‘tagan va uchrashuvlar o‘tkazgan. 2020-yil 26-may “Gulobod mebel” MCHJda uchrashuv o‘tkazgan.

Usmonova Dilfuza Ilxomovna institut bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2017-yil 18-may , 2018-yil 16-may, 2019-yil 20-may sanalarida institutda tashkil etilgan “Karyera kuni” tadbirlarini tashkil qilishda ishtirok etgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining e’lon qilingan kun munosabati bilan uyushtiriladigan tadbirlarida, xususan 9-fevral – Alisher Navoiyning tug‘ilgan kuni, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, buyuk ajdodlarimiz tavallud kunlariga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlarda, 8 Mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro‘z va boshqa tantanali bayramlarda o‘zi murabbiylik qilib kelinayotgan MR-216 akademik guruh bugungi kunda esa MR-220 talabalari bilan birgalikda faol qatnashadi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib boradi.

Usmonova Dilfuza Ilxomovna o‘z ilmiy faoliyati davomida Marketing kafedrasi kesimida 5230400 – “Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” yo‘nalishi bakalavrlari bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarlik qilib malakali yosh kadrlar tayyorlamoqda. Usmonova Dilfuza Ilxomovna 2005-yildan buyon 32 nafar talabaning bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilgan.



TOJIBAYEVA NAZOKATXON KOBILJONOVNA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b, Pedagogika fanlari falsafa doktori

- “Osiyo taronalari” “Yangi avlod” yoshlar forumida eng yosh iqtidorli ishtirokchi va g‘olibi.
- Malayziya, Singapur, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda xalqaro konferensiyalarida spiker va tashkiliy qo‘mita a’zosi.
- “Maktabgacha ta’limda rahbarlik” darsligi hammuallifi.
- 100 ga yaqin tanqidiy-tahliliy maqolalari chop etilgan.

Tojibaeva Nazokatxon Kobiljonovna 25.12.1987-yil Surxondaryo viloyati Termiz shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti dotsenti v.b.

2006-2010-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillar universitetini a’lo bahoga tamomlab, magistratura bosqichiga imtiyozli o‘qishga qabul qilingan.

Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna o‘qish davomidagi faolligi, ilmli, zehnli va tadbirlarni tashkillashtirishdagi faol ishtiroki uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda A.Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori bo‘lgan (2008-2009-y.y). 2012-yil O‘zbekiston davlat jahon tillar universitetida o‘qituvchi lavozimida ish faoliyatini boshlagan.




2015-2016-yillar davomida O‘zMU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi katta o‘qituvchisi, shuningdek rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Bosh ilmiy metodik markazi katta o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan. 2018-yilda “Xalqaro loyihalar va ularni tijoratlashtirish” bo‘limi boshlig‘i, Toshkent shahar investitsiya, sanoatlashtirish va tijoratlashtirish departamenti bosh mutaxasssi sifatida faoliyat yuritgan. “Hello Asia and Europe” MCHJ ta’sischisi, 2019-yilda Nizomiy nomidagi TDPU “Ta’limda menejment” yo‘nalishi



tayanch doktoranti sifatida tahsil oldi, 2022-yilda PhD (falsafa doktori) diplomi bilan taqdirlandi.

17 yoshida “Osiyo taronalari”, “Yangi avlod” yoshlar forumida eng yosh iqtidorli ishtirokchi va g‘olib sifatida e’tirof etilgan. 2015-2018-yillar davomida Malayziya, Singapur, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda xalqaro konferensiyalarida spiker va tashkiliy qo‘mita a’zosi sifatida ishtirok etgan.




Tojibaeva Nazokatxon Kobiljonovna “Maktabgacha ta’limda rahbarlik” darsligi hammuallifi, faoliyati davomida 100 ga yaqin pedagogika, ijtimoiy-iqtisodiy, nazorat-tahlil va talabalarda menejerlikni takomillashtirishga oid tanqidiy-tahliliy maqolalari Respublika, mintaqaviy hamda ommabop jurnal, gazetalarda chop etilgan. Shuningdek, 10 dan ortiq Respublika va mintaqaviy ommaviy axborot vositalarida (O‘zbekiston 24, Foreign Languages, Ertalabdan salom, Yoshlar kelajagimiz, Yoshlar telekanali) intervyulari yoritilgan.




N.Tojibaeva faoliyati davomida o‘zining xalqparvarligi, adolatparvarligi, fidoyiligi, tirishqoqligi, talabchanligi, o‘ziga bildirilgan ishonch va ma’suliyati, masalaga chuqur va tahliliy yondashishi bilan O‘zbekiston yoshlar ishlar agentligida yoshlar uchun tashkil etilayotgan har tadbirlarda, tarjimon va tashkilotchi sifatida ham o‘z o‘rniga ega. N.Tojibaeva oilali, 2 nafar farzandning onasi.



Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarga munosabat bildiruvchi, vatanparvar va yurt ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shishga doim shay, yoshlar o‘rtasida menejer va liderlik xususiyatini rivojlantirishda, ularni xalqchil va fidoiy, o‘z



kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishida, yoshlar orzularini ro‘yobga chiqarishda sababchi bo‘lishni asosiy vazifasi va maqsadi sifatida biladi.



PIRMANOVA GAVXAR NAZARKULOVNA

Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent

- Navoiy davlat pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasi mudiri
- Maxpirat nomidagi O’rta Osiyo xalqlari tarixi instituti Turon fanlar akademiyasi prezidiumining qarori bilan Faxriy akademik ilmiy unvoni va ko’krak nishoni berilgan
- 2 ta monografiya, 30 dan ortiq maqolalar, 12 ta EHMi uchun yaratilgan dastur guvohnomalari, 1 ta darslik, 4 ta o’quv,4 ta uslubiy qo’llanmalar muallifi.

Pirmanova Gavxar Nazarkulovna 1982 yil Navoiy viloyati Navoiy shahrida tavallud topgan. Oilali 1 nafar farzandi bor. Navoiy shahrida istiqomat qiladi.

1999-2003 yillar Navoiy davlat pedagogika institutining Xorijiy tillar fakulteti ingliz tili yo’nalishi, 2006-2008 yillar magistratura bosqichida o’qigan. Pedagogik faoliyatini 2000 yil Navoiy shahridagi Usmon Nosir nomli 7 umumta’lim maktabida ingliz tili o’qituvchisi lavozimida boshlagan. 2008 yildan boshlab Navoiy davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti chet tillar kafedrasi o’qituvchisi, 2011 yilda shu kafedraning katta o’qituvchisi, 2021 yil Chet tillar fakulteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasi dotsenti, 2022 yildan Ingliz tili va adabiyoti fakulteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat olib bormoqda.



2019 yil O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi berildi.

2021 yil O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Navoiy davlat pedagogika instituti kengashining tavsiyasiga ko’ra Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixsosligi bo’yicha dotsent ilmiy unvoni tasdiqlandi.

2022 yil Maxpirat nomidagi O’rta Osiyo xalqlari tarixi instituti Turon fanlar



akademiyasi prezidiumining qarori bilan Faxriy akademik ilmiy unvoni va ko’krak nishoni berildi.

2014 yil “Теоретико-практические основы изучение студентами художественного наследия Англии как средство активизации интереса к английскому языку” nomli monografiyasini Fan va texnologiya nashriyotida chop ettirgan. 2015 yilda “Система изучения студентами художественного наследия Англии как фактор активизации интереса к английскому языку” nomli uslubiy qo’llanmasini Fan va texnologiya nashriyotida chop ettirgan.



O’z pedagogik faoliyati davoida xorijiy va mahalliy jurnallarda Culturological social and communicative context in training in English, The system of Extracurricular studying of art heritage of England, Педагогическая система внеаудиторного изучения студентами художественного наследия Англии как средство активизации интереса к английскому языку, Основы изучения художественного наследия Англии как средство активизации интереса к английскому языку nomli maqolalari va shunga uxshash boshqa maqolalari bilan nufuzli jurnallar va ilmiy konferensiyalarda o’z ilmiy asarlarini chop ettirgan.



2022 yilda Musiqiy ta’lim yo’nalishi talabalari uchun English for students nomli o’quv darsligini muallifi bo’lgan.

2021-2022 yillar oralig’ida Tarix,matematika, o’zbek tili va adabiyoti nofilologik ta’lim yo’nalishlari uchun 4 ta o’quv qo’llanma yaratdi.

Hozirgi kunda 100 yaqin ilmiy asarlar muallifi. 2 ta monografiya, 30 dan ortiq Xorijiy jurnallarda o’z maqolalarini chop ettirgan. 12 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur guvohnomalari, 1 ta darslik, 4 ta o’quv qo’llanma, 4 ta uslubiy qo’llanmalar muallifi.



SADULLAYEV SANJARBEK MADIYAROVICH

Urganch davlat universiteti Mevachilik va Sabzavotchilik kafedrasi mudiri, Qishloq xo‘jalik fanlari falsafa doktori

- Monografiya, 50 dan ortiq ilmiy maqola va materiallari Scopus va boshqa nufuzli xalqaro bazalardagi ilmiy jurnallarda chop etilgan.
- Bir necha yillar (2018-2022) davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida fundamental tadqiqotlar ilmiy grantlarida ishtirok qilib kelmoqda.

Sadullayev Sanjarbek Madiyarovich – qishloq xo‘jalik fanlari falsafa doktori, (PhD), Urganch davlat universiteti, Mevachilik va Sabzavotchilik kafedrasi mudiri.

1987-yil 14-martda Xorazm viloyati Xiva tumanida tug‘ilgan. 2002-yilda tumandagi 17-son o‘rta maktabni 9-sinfini a’lo baholar bilan, 2005-yil Xiva tumanidagi ixtisoslashgan 2-litsey internatini a’lo baholar bilan, 2012-yili Toshkent davlat agrar universiteti Meva-sabzavotchilik fakultetini bakalavriyat, 2014-yili Toshkent davlat agrar universiteti Kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha magistraturani qizil diplom bilan bitirgan.

2014-yildan Urganch davlat universiteti barqaror taraqqiyot va ekologik ta’lim kafedrasida kabinet mudri lavozimida mehnat faoliyatini boshlagan. 2015-2018-yilari Urganch davlat universiteti tuproqshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi, 2018-2020 yildan Urganch davlat universiteti Agronomiya (Sabzavotchilik - polizchilik) ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranti. 2020-2021-yillarda Urganch davlat universiteti qoshidagi “Qovunchilik” bo‘limi boshlig‘i. 2021-2022 yillarda Urganch davlat universiteti Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasi mudiri. 2022-yildan Mevachilik va Sabzavotchilik kafedrasi mudiri lavozimida ilmiy-pedagogik faoliyat olib bormoqda.



2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish

agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx/B.42.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashda, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, Nizomov Rustam Axrolovich rahbarligida «Qovun genofondini saqlash, eksportbop navlarini ajratish hamda yetishtirishning ayrim texnologiyasi elementlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati sharoitida)» mavzusidagi 06.01.06 – Sabzavotchilik ixtisosligi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi fanlari doktori bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini ega bo‘ladi.



2018–2020-yillari Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti dotsenti M.Xalimova rahbarligida KX-A-KX-2018-123 “Qovunning mahalliy nav namunalarini o‘rganish, genofondini saqlash va eksportbop, serhosil navlarini ajratish” hamda KX-A-KX-2021 “Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitiga mos, serhosil



va eksportbop mahalliy qovun navlari birlamchi urug‘chiligini rivojlantirish” mavzusidagi amaliy loyihalarida kichik ilmiy xodim sifatida ishtirok qilgan. 2021-2022-yillarda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti dotsenti A.S.Rustamov rahbarligida AL-5521111971-“Xorazm viloyati sharoitiga mos bulg‘or qalampirining sanoatbop navlarini tanlash va birlamchi urug‘chiligini tashkil etish” mavzusidagi amaliy loyihasida ishtirok qilmoqda.

S.Sadullayev Xorazm qovunlar va sabzavot ekinlarini rivojlantirish va yetishtirish agrotexnologiyasi takomillashtirish bo‘yicha ko‘p yillardan buyon faol shug‘ullanib kelmoqda va mamlakatimiz olimlari bilan ilmiy hamkorlik olib borayotgan yetuk mutaxasis, ilmiy tadqiqotchi sifatida tanilgan. Uning ilmiy ishlari mamlakatimiz va chet ellarda–AQSH, Germaniya, Hindiston, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston kabi davlatlarni nufuzli ilmiy nashrlarida chop etilgan. S.Sadullayev bir necha yillar (2018-2022) davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida fundamental tadqiqotlar ilmiy grantlarida ishtirok qilib kelmoqda. S.Sadullayev ko‘p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati natijasida 50 dan ziyod ilmiy va uslubiy ishlar, shu jumladan, 4 nafar hammualliflikda o‘quv-uslubiy qo‘llanma,

katalog, tavsiyanomalar tayyorlagan hamda Ommaviy axborot vositalari o‘zining ilmiy ishlari yuzasidan chiqish qilganlar.



va xalq ta’limida, davlat va jamoat boshqaruvning turli bo‘g‘inlarida mehnat qilmoqdalar.

S.Sadullayevning universitetdagi ilmiy-pedagogik faoliyati davomida bitta monografiya, 50 dan ortiq ilmiy maqola va materiallari Scopus va boshqa nufuzli xalqaro bazalardagi ilmiy jurnallar hamda xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar to‘plamlarida chop etildi.

S.Sadullayev ilmiy-pedagogik faoliyati davomida ko‘plab bakalavr va magistr kadrlar tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Uning shogirdlari bugungi kunda oliy, o‘rta maxsus



RAXIMOVA
NIGINA
MUROD QIZI

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekistan Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy xodimi

- Universitet talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan yangi “Start Up” tanlovida “TEXNOSTART” yo‘nalishi bo‘yicha 2-o‘rinni egallagan.
- Oliy talim muassasalari talabalari o‘rtasida “Tafakkur sinovlari” Respublika ko‘rik-tanlovining hududiy bosqichida 1-darajali Diplom bilan taqdirlangan.

1993-yil 16-martda Toshkent shaxrining Olmazor tumanida tugilgan, millati o‘zbek; Raximova Nigina Murod qizi hozirgi kunda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish tarmoqlar buyicha Belarus-O‘zbekiston qushma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti uchun maqsadli tayyorlanayetgan 2-bosqich magistranti. Hozirgi kunda u Mirzo Ulug‘bek nomidagi yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy tadqiqotlar institutida ilmiy xodimi sifatida faoliyat yuritib, shu bilan birga innovatsion texnologiyalarning Nanostrukturali kremniy datchik asosida turli xil ob’yektlarda temperatura va namlikni nazorat kiluvchi mikroprotsessorli asbobni ishlab chiqish buyicha, ishlab chiqarish amaliyotini xam o‘tash bilan bir qatorda Grant FZ 201906071 raqamli “Termodatchiklar va elektron termometrlarni ishlab chiqishning " ФОТОН" AJda mavjud texnologik ishlarga muvofik keluvchi texnologiyalarini ishlab chiqish” ilmiy loyixasida MIJ a’zosi sifatida ishlab kelmoqda. Raximova Niginaning



“Nanostrukturali kremniy datchik asosida turli

xil ob’yektlarda temperatura va namlikni nazorat qiluvchi mikroprotsessorli asbobni ishlab chiqish”, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari haroratini masofadan boshqarish uchun ko‘p kanalli qurilmani ishlab chiqish” hamda “Nikel ionlari bilan to‘kilgan silikon yuzasining kristal tuzilishiga yumshatish ta’siri” nomli ilmiy - tadqiqot va ijodiy



ishlarida egallayotgan ixtisosligi xususiyatlaridan kelib chiqib ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga ijodiy faoliyat bilan ham shug‘ullanib, ishlab chiqarish korxonasiga yangi texnika, texnologiya va uslublarini tavsiya etish ham ilmiy asosdagi tadqiqotlar bo‘lib, talaba ilmiy texnik konferensiyalarda o‘z ma’ruzalari bilan qatnashmoqda. 2019-yil Xalqaro “Science and innovation” International scientific journal Volgograd shahrida maqola chop etilgan.

2022-yil Journal Proceedings on Engineering Sciences “Study of the distribution profile of iron implanted in silicon and influence thermal annealing on the structure of iron silicides”” nomli maqolasi chop etilgan.

2022-yil Scientific Technical Journalда “Некоторые особенности интегральных полупроводниковых датчиков температуры” nomli maqolasi chop etilgan va shunga o‘xshash bir qator nufuzli horijiy jurnallarda va halqaro anjumanlarda ko‘pgina maqola va tezislari chop etilgan. Shuningdek, fan yo‘nalishining innovatsion texnologiyalar bo‘yicha Respublika miqyosidagi tanlovlarda bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritib, Vatanimiz sharafini yanada yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Jumladan 2019-yili universitet talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan yangi “Start Up” tanlovida “TEXNOSTART” yo‘nalishi bo‘yicha 2-o‘rinni egallagan. 2019-yil O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi, Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti Talaba va yosh pedagoglar hamda korhonalarning yosh mutaxassislari Respublika “ROBOT-UZ 2019” robototexnika tanlovida faol ishtirok etgani uchun Tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2019-yil “O’zstandart” агентлиги “Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi Davlat korxonasi” da amaliyot o‘tadi. Amaliyot davomida talaba o‘tkazilgan tadqiqot anketalarini kodlashtirdi, diagrammalar tuzdi. Talaba amaliyot vaqtida o‘zining namunali xulqi, masuliyatliligi, tirishqoqliligi, ishini o‘z vaqtida bajaradigan, intizomli hamda Sertifikatlashtirishda, mahsulot muvofiqligini tasdiqlanishi lozim bo‘lgan hususiyatlar ro‘yhati, tekshirish va sinash usullarini o‘zlashtirganligini ko‘rsatdi.





Shuningdek, idora tadbirlarida faol ishtirok

etgani uchun “Respublika SSM” DK qoshidagi “Chuqursoy” maxsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi tomonidan Tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Oliy talim muassasalari talabalari o‘rtasida “Tafakkur sinovlari” Respublika ko‘rik-tanlovining hududiy bosqichida 1-darajali Diplom bilan taqdirlangan.



2019-yilda Toshkent shahar hokimligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy Kengashi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan “Yoshlik malikasi-2019”, “Eng istedodli ishtirokchi” nominatsiyasi g‘olibasi etib diplom va estalik sovg‘alar sohibasi bo‘lgan.

2021-yil Sertifikat O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi



Innovatsion rivojlantirish vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "O‘zbekiston-Fransiya" do‘stlik jamiyati yetakchi olimlar hamkorligida masofaviy shaklda tashkil yetilgan "Ilmiy tadqiqotlar sammiti"da o‘zining ilmiy maqolasi hamda ma’ruzasi bilan ishtirok etgani uchun taqdirlangan.

2022-yil "Best publication" ilmiy tadqiqotlar markazi (science and research center) tomonidan tashkil qilingan “Tashabbuskor islohotchi” xalqaro tanlovi g‘olibi.

2022-yil Lider yoshlar assotsiyatsiyasi “Kelajak bunyodkorlari volontyorlari birlashmasi”, Respublika yosh olimlar kengashi “Flight Youth forum” da faol ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

Jumladan “Research and publications” ilmiy nashrlar markazi, Sirdaryo viloyati hokimligi, Sirdaryo viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi, Toshkent to‘qimachilik va yyengil sanoat instituti, Axborot ommaviy kommunikatsiyalar agentili Sirdaryo viloyati



hududiy boshqarmasi, Yoshlar Ishlari Agentligi va bir qancha davlat tashkilotlari tomonidan 2022-yil “Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar: Muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Ta’lim fidoyisi” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik tanloviga taqdim yetilgan ilmiy ishlari ilmiy kengash tomonidan ko‘rib chiqilib, bir ovozdan ma’qullandi va “Ta’lim fidoyisi” esdalik nishoni hamda guvohnoma,



sertifikat, tashakkurnomasi bilan taqdirlandi. 2022-yil Belgiya Ta’lim Kengashining "Kiberpedagog" Xalqaro Online ta’lim harakati doirasidagi 4-master-klassda samarali ishtirok etib maxsus Sertifikatga ega bo‘ldi. Nur-Sulton, Qozog‘istondagi “Yeng yaxshi yosh olimlar – 2022” loyihasi ishtirokchisi Raximova Nigina Murod qizi Ushbu loyihada MDH mamlakatlari ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan yeng yaxshi yosh olimlar qatorida “Eng yaxshi yosh olim – 2022”



xalqaro loyihasiga qabul qilingan, mazkur loyihaning asosiy maqsadi yosh olimlarning yeng yaxshi muhim va innovatsion loyihalarini aniqlash, ilmiy qiziqishlarini ilgari surish, ilm-fan rivoji uchun yagona birlashtiruvchi platforma yaratishdan iborat. “Tashabbuskor islohotchi” xalqaro ilmiy-amaliy tanlovi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil yetilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik tanloviga taqdim yetilgan ilmiy ishlari ilmiy kengash tomonidan ko‘rib chiqilib, bir ovozdan ma’qullandi va “Tashabbuskor islohotchi” yesdalik nishoni hamda yesdalik nishon belgisi, guvohnoma, sertifikat, diplom, tashakkurnoma bilan Samarqand shahrida taqdim etildi.

Aytish mumkinki, Davlat darajasidagi e’tibor keyingi yillarda iste’dodlar makoni bo‘lgan O‘zbekistonimizda o‘zining salmoqli samaralarini bermoqda. Bu o‘rinda yosh avlodimiz vakillarining nufuzli madaniyat va fan-ta’lim anjumanlarida faol qatnashib yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelayotganliklarini eslashimiz mumkin. Talabalar ilmiy ishlarining nihoyatda istiqbolli shakli ularning umumuniversitet kompleks tadqiqotlarida, mutaxassislik kafedralarning rejali ilmiy ishlarini bajarishda qatnashishidir. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarining yakuni ilmiy maqola, patent, nomzodlik dissertatsiyaga mavzu va ma’lumot sifatida shakllanadi.



SOBIROVA GULNOZA RAXMATILLOYEVNA

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Aniq va tabiiy fanlarda xorijiy tillar kafedrasi dotsenti v.b. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

- “Word Bulletin of Social Sciences” Scholar express journals xalqaro jurnali tahrir hayati a’zosi.
- “Renessans davri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishoni egasi.
- 30 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy maqolalar va “Talabalarning auditiv layoqatini axborot talimiy resurslari orqali rivojlantirish” nomli o‘quv metodik qo‘llanmasi muallifi.

Sobirova Gulnoza Raxmatilloyevna 1989-yil 25-avgustda Navoiy viloyati Navbahor tumanida tug‘ilgan.

1996-2007-yillarda Navoiy viloyati Navbohor tumani 15-umumta’lim maktabida a’lo baholar bilan o‘qigan.

2007-2011-yillarla Navoiy davlat pedagogika institutida xorijiy tillar mutaxassisligi tahsil olgan.



2011-2013-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Universiteti magistraturasida taxsil olgan.

Pedagogik faoliyatini 2013-yilda Navoiy davlat pedagogika instituti Fakultetlararo chet tillar kafedrasida o‘qituvchi, 2018-2021-yillarda Guliston davlat universiteti fakultetlararo chet tillar kafedrasida Katta o‘qituvchi, 2021-yildan hozirgi vaqtgacha Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Universiteti Aniq va tabiiy fanlarda xorijiy tillar kafedrasi v.b dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.



2021-yilda Intellektual mulk agentligidan “Talabalarning kasbiy auditiv


layoqatini rivojlantirishda axborot talimiy resurslardan foydalanish” nomli ilmiy ishlanmasiga mualliflik huquqi guvohnomasini qo‘lga kiritgan. 2022-yil fevral oyida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga musharraf bo’ldi. Sobirova Gulnoza Raxmatilloyevna 30 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi.



G.Sobirova “Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda axborot ta’limiy resurslardan foydalanish texnologiyasi, Talabalarning ingliz tilidan kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda axborot ta’limiy resurslardan foydalanish, Amerika Qo’shma shtatlarida ta’lim tizimining tuzilishi va o’ziga xos tomonlari, Ingliz tilini o’qitishda rejalashtirish ,tashkil etish, motivlashtirish va nazorat qilish, Uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarni o’qitish samaradorligini oshirishda innovatsion ta’lim texnalogiyalarining o’rni, Uzluksiz ta’lim jarayonida talaba- yoshlarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirish, Chet tillarni tez va samarali o’rgatishning ayrim tamoyillari, Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini oshirishda axborot ta’limiy resurslaridan foydalanish, Appling the mass media with the aim to teach foreign language,



Theoretical concept of text and literary text, Bo’lajak o’qituvchilarning ingliz tilidan kasbiy auditiv nutqini rivojlantirish, Development of auditive speech in students, Using online resources for English lessons, Ingliz va o’zbek tillarida eganing mazmuni, Ingliz tilini o’qitishda talabalarda nutq faoliyati turlarini ta’limiy metodlar asosida rivojlantirish, Use of information and educational resources in the development of students’ auditory speech, Talabalarda auditiv nutqni rivojlantirish, Using educational information resources to develop student professional listening skills, The current state of speech in the development of students’ professional auditory ability (colloquial speech) and written (writing) speech, Talabalarning kelgusidagi kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda axborot ta’limiy resurslaridan foydalanish mexanizmlari, Talabalarda auditiv nutqni rivojlantirish, O’quvchi - talabalarda auditiv nutqni rivojlantirish” kabi maqolalar muallifidir.





2022-yilda “Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning auditiv layoqatini rivojlantirish” nomli monografiyasi hamda “Talabalarning auditiv layoqatini axborot talimiy resurslari orqali rivojlantirish” nomli o‘quv metodik qo‘llanmasi nashrdan chiqqan.

Bundan tashqari 2022 yil sentyabr oyida “Renessans davri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishonini qo‘lga kiritdi. “Word Bulletin of Social Sciences” Scholar express journals xalqaro jurnali tahrir hayati a’zosi.

Sobirova Gulnoza Raxmatilloyevna oilali, 3 nafar farzandi bor.



UTAYEVA IRODA BAXODIROVNA

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

- “Renessans davri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishoni egasi.
- Intellektual mulk agentligidan “ENGLISH” nomli ilmiy ishlanmasiga mualliflik huquqi guvohnomasini qo‘lga kiritgan.
- 15 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy maqolalar muallifi.

Utayeva Iroda Baxodirovna 1988-yil 17-noyabr kuni Samarqand viloyati Ishtixon tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan. 2007-2011-yillar - Samarqand Davlat chet tillar instituti bakalavr yo‘nalishi “filolog, ingliz tili o‘qituvchisi” mutaxassisligini «imtiyozli» diplom bilan tugatgan;

2011-2013-yillarda - Samarqand Davlat chet tillar instituti magistranti;



2013-2016-yillarda- Samarqand Davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

02.10.2020 dan 01.01.2021 gacha Guliston davlat universiteti, “Ingliz tili va adabiyoti” kafedra o‘qituvchisi

01.01.2021 - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti


2021-yilda Intellektual mulk agentligidan “ENGLISH” nomli ilmiy ishlanmasiga mualliflik huquqi guvohnomasini qo‘lga kiritgan.



2022-yil fevral oyida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga musharraf buldi. Utayeva Iroda

Baxodirovna 15 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi.

I.Utayeva “Xorijiy tilning grammatik tushunchalarini o‘zlashtirish jarayonida talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatining mazmuni, shakllari va usullari,



O‘quv grammatik tushunchalarni o‘zlashtirishda va talabalarni mustaqil bilim olish jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi didaktik o‘zaro faoliyat, Improving the teaching of grammar concepts to students of higher educational institutions of the bases of innovative approach, The essence of independent study skills activities in the teaching process of languages, Development of grammatical concepts in the process of independent learning of students, В современном мире использование интернет-ресурсов для обучения переводу,



Importance and benefits of teaching communications skills to medical students, Innovative approach to teach English, Relevance of use of Internet Resources for training translation, Terminology of English language, O‘qitish jarayonda mustaqil bilim olish faoliyati didaktik muammo sifatida” kabi maqolalar muallifidir.

Bundan tashqari 2022 yil sentyabr oyida “Renessans davri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishonini qo‘lga kiritdi. Utayeva Iroda Baxodirovna oilali, to‘rt nafar farzandning onasi.




RUZIKULOVA NIGORA SHUXRATOVNA

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni egasi.
- “Science and innovation” hamda “Central Asian Journal of education” xalqaro ilmiy jurnallari tahrir hay’ati a’zosi.
- “Ixtirochi ayol - 2022” tanlovining “Yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha yeng yaxshi loyiha” nominatsiyasida shahar bosqichi g‘olibasi.

Ruzikulova Nigora Shuxratovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. 1988-yili Jizzax viloyatida tug‘ilgan. 2010-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish fakultetini tamomlagan. 2011-2020-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti, doktoranti, o‘qituvchisi. 2020-2021-yillarda I.M.Gubkin nomidagi (MTU) Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filialida Monitoring va ichki nazorat sektori mudiri, 2021–2022-yillarda Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, 2022-yildan hozirga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti (DSc).



I.M.Gubkin nomidagi (MTU) Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi DSc.22/30.12.2019.T/Ped.99.01 raqamli Ilmiy kengashning 2020-yil 29-iyundagi yig‘ilishida 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasini muddatidan oldin muvaffaqiyatli himoya qilgan.

2021-yil sentabr oyida O‘zbekiston

Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan mukofotlangan (57-M. 27.09.2021-yil).



Ruzikulova Nigora Shuxratovna 2019-yildan buyon matematika fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini yaratish bo‘yicha ishchi guruhi a’zosi hamda “Matematika” 3-sinf darsligi muallifi sifatida ularni zamon talabiga muvofiq qayta ishlab takomillashtirishda Respublika ta’lim markazi bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi.



2019-yilda nashr etilgan “Matematika” 3-sinf darsligini yaratishda hammuallif sifatida ishtirok etgan.

Bundan tashqari 2019-yildan buyon matematika fanidan davlat ta’lim standarti va Milliy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, yangi avlod darsliklarini yaratishda ishtirok etib kelmoqda. Xususan, Matematika fani bo‘yicha milliy o‘quv dasturini yaratish bo‘yicha ishchi guruh a’zosi. Uning muallifligidagi darsliklar Xalq ta’limi tizimida foydalanilib kelinmoqda. U 3-sinf “Matematika” (2019); 1-sinf “Matematika” (yangi avlod, 2021-yil), 2-sinf “Matematika” (yangi avlod, 2021-yil), 3-sinf “Matematika” (yangi avlod, 2022-yil) darsliklari hamda, 1-sinf “Matematika” o‘qituvchi kitobi (yangi avlod, 2021-yil) va 2-sinf “Matematika” o‘qituvchi kitobi (yangi avlod, 2021-yil) muallifi.



Xalq ta’limi vazirligi hamda AQSH Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) va RTI International bilan hamkorlikda to‘rt yilga mo‘ljallangan “Barkamollik uchun Ta’lim Dasturi”da ishchi guruh a’zosi sifatida 1-4-sinflar uchun matematika fanidan ishlab chiqilgan ta’lim standartlari, hajm va tartib hujjatlari hamda darslik hamda o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarning oprabatsiya jarayonlarida ishtirok etib kelmoqda.



Mamlakatimiz xotin - qizlarini innovatsion g‘oyalari, loyiha va ishlanmalarini joriy etishda har tomonlama qo‘llab – quvvatlash, tadbirkorlik va ishtirochilik faoliyatiga keng jalb qilish, intellektual mulk ob’yetlarini huquqiy muhofaza qilishga ko‘maklashish, ta’limning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan xotin-qizlarning faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni joriy qilish maqsadida 2022-yil 1-iyun kuni universitetda Oila va xotin qizlar davlat qo‘mitasi Xotin qizlar o‘rtasida ilm-fan innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘limi hamda Toshkent shahar hokimligi Oila va xotin-qizlar boshqarmasi bilan hamkorlikda “OLIMA

PEDAGOG AYOLLAR” o‘quv-amaliy seminari tashkil etilgan bo‘lib, unda doktorant Nigora Shuxratovna innovatsion g‘oyalari va ilmiy loyihalari bilan ishtirok etdi.

Xususan, “Boshlang‘ich talim uchun matematika fanidan 3D interaktiv dasturiy maxsulotlarini yaratish” mavzusida loyiha bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari bilan ishtirok etib Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi,



O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Toshkent shahar hoqimligi, O‘zbekiston Ixtirochi ayollar markazi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti tomonidan tashkil etilgan “INNOWOMEN INNOWEEK” Xotin-qizlar innovatsiya haftaligida Toshkent shahar hokimi o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti rektori tomonidan “Olima pedagog ayollar” sertifikati bilan taqdirlangan.

2022-yilda “Hududning 100 nafar ixtirochi ayoli” xaftaligi doirasida tashkil etilgan “Ixtirochi ayol - 2022” tanlovining “Yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha yeng yaxshi loyiha” nominatsiyasida shahar bosqichida 1-o‘rinni egallagan.



Ruzikulova Nigora Shuxratovna 20 ga yaqin darslik va qo‘llanmalar, 20 dan ortiq xalqaro maqolalar, 50 dan ortiq respublika jurnallarida chop etilgan ilmiy maqolalar muallifi. 50 dan ortiq xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan konferensiyalarda tezislari bilan ishtirok etgan.

Ruzikulova Nigora Shuxratovna “Science and innovation” hamda “Central Asian Journal of education” xalqaro ilmiy jurnallari tahrir hay’ati a’zosi.



MUSAYEV BEKJON SHUKURILLAYEVICH

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi kotibi

- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Menejment" kafedrasida Menejment (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) mutaxassisligi bo’yicha DAK kotibi
- "Marketing" kafedrasida Marketing (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo‘nalishi bo’yicha YADAK a’zosi
- 70 dan ortiq ilmiy, o’quv uslubiy ishlar, jumladan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, 2 ta darslik, 4 ta o’quv qo’llanma 10 ta uslubiy qo’llanma va ko’rsatmalar hamda 1 ta ilmiy-ommabop risola muallifidir.

Musayev Bekjon Shukurillayevich 1981-yil 29-martda tugilgan. millati o’zbek 2004-yil Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Marketing" mutaxassisligini tugatgan. 2004-yil 2-sentabrdan boshlab, Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi assistenti, 2012-yildan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Menejment va statistika" kafedrasi katta o’qituvchisi, 2021-yil 6-sentabrdan "Marketing" kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchisi lavozimlarida shuningdek, 2005-yildan 2006-yilga kadar "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti dekan o’rinbosari lavozimida ishlagan. 2020-yil 25-sentabrdan institut Kengashi kotibi lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Umumiy ish staji 24-yil, ilmiy va pedagogik ish staji 18-yil. 2002-yildan buyon Samarqand iqtisodiyot va servis institutida ishlab kelmoqda.



Musaev Bekjon Shukurillaevich 2004-yildan buyon institutning barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalariga "Iqtisodiyot nazariyasi", "Mikroiqtisodiyot", "Menejment", "Marketing" fanlaridan ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar, "Menejment", "Kadrlar menejmenti" va "Turizm menejmenti" ta’lim yo’nalishlari talabalariga "Sifat menejmenti", "Kichik biznesni boshqarish", "Mehmonxona xo‘jaligi menejmenti" fanlaridan ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar hamda "Marketing" ta’lim yo’nalishi talabalariga "Brendni boshqarish", "Marketingni boshqarish" va "Internet marketing" fanlaridan ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarini zamonaviy pedagogik ("Keys stadi", "Aqliy hujum", "Bumerang",

"Nima uchun", "Klaster", "Blits-surov", "Sinkveyn", "Venn diagrammasi", "Rezyume", "BBB", "T-jadvali", "Besh minutlik esse", "FSMU" kabi interfaol usullardan) axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda sifatli ta’lim berib kelmoqda.



Shuningdek, hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim masofadan o’qitishni talab qilganligi uchun “Moodle" platformasiga ham bir qator "Menejment", "Marketing", "Tovarlar marketingi" va "Restoran Marketingi" fanlaridan barcha resurslarni joylashtirgan va ushbu tizim orqali ham yuqori saviyada dars mashg’ulotlarini olib borgan.

B.Sh. Musaev har bir mavzu bo’yicha ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni taqdimot - slaydlar, tarqatma materiallardan foydalangan holda olib boradi. Uning pedagogik mahorati o’quv - uslubiyat bilimi, institutning ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo’limlari tomonidan muntazam o’tkazib kelinadigan "Pedagog talaba nigohida" so’rovnomalarida talabalar tomonidan yaxshi baholangan. Ushbu so’rovnomalar Musaev Bekjon Shukurillaevich o‘z kasbini sevadigan hurmatga sazovor va yuqori saviyali pedagog ekanligini ko’rsatdi va faoliyati ijobiy baholangan.

B.Sh.Musaev respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalari uchun Yuqori malakali menejerlar va marketolog mutaxassis kadrlarni tayyorlashda faol. Shu bilan birga o‘quv-uslubiy jarayonini tashkil etish, ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, ilmiy-uslubiy jarayonni tashkil etish talim va ilmiy-tadqiqot ishlarining uzviyligini ta’minlash borasida ham fidokorona mehnat qilib kelmoqda. Shuningdek, talabalar bilan o’quv-tarbiyaviy, ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda tashkilotchi va faol pedagogdir.

Musaev Bekjon Shukurillaevich Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Menejment" kafedrasida 2019-2020 o’quv yilida 5A230201- Menejment (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)" mutaxassisligi bo’yicha DAK kotibi (institut rektorining 2020-yil 30-apreldagi №-49-T buyrug’i). Shuningdek, "Marketing" kafedrasida 2021-2022 o’quv yilida 5230400- "Marketing (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)" ta’lim yo‘nalishi bo’yicha YADAK a’zosi (institut rektorining 2020-yil 22-fevraldagi №49-T buyrug’i),

Musaev Bekjon Shukurillaevich o’z ilmiy faoliyati davomida "Menejment" kafedrasida 2009-yildan buyon 5240200 - "Menejment" ta’lim yo’nalishi, 5810700- "Turizm menejmenti" ta’lim yo’nalishi hamda 5240200 - "Menejment (turizm)" ta’lim yo’nalishlarining 28 nafar talabalarining bitiruv malakaviy ishlariga ilmiy rahbarlik qilgan va bu talabalarning o‘z mutaxassisligi bo’yicha ishga joylashishiga ko’maklashgan.



Musaev Bekjon Shukurillaevich talabalarning respublika tanlovlari g’oliblari va stipendiatlarini tayyorlashda ham munosib hissa qo’shib kelmoqda. Jumladan, 5230400-

Marketing (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi 2-kurs, MR-320 guruh talabasi Abdukarimov Abduqayum Abdukarim o’g’lini "Menejment" fanidan tayyorlab, institutda "Menejment" fanidan o’tkazilgan onlayn respublika fan olimpiadasida faxrli 3-o‘rinni egalladi va 3-darajali diplom bilan taqdirlandi.



Shuningdek, rahbarligida 5230400-Marketing (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi talabasi Tursunov Jasurni "Marketing" fanidan o’tkazilgan onlayn xalqaro fan olimpiadasida 1-o‘rinni egalladi va diplom bilan taqdirlandi.

B.Sh.Musaev "Shams-T" fermer xo‘jaligi bilan 2020-yil 25-iyundan 2021-yil 24-dekabr sanasigacha "Fermer xo‘jaligi xodimlarini samarali boshqarish yo‘llari", "Fermer xo‘jaligi boshqaruvida menejment usullaridan samarali foydalanish yo‘llari" hamda "Fermer xo’jaligi raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish" mavzularidagi xo‘jalik shartnomasi asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida rahbar (institut rektorining 2020-yil 16-noyabrdagi № 295-II-sonli buyrugi, 2020-yil 31-dekabrdagi №354-I-sonli buyrug’i hamda 2022-yil 10-fevraldagi № 7-I-sonli buyrug’i) sifatida faoliyat olib bordi.

Musaev Bekjon Shukurillaevichning shu vaqtgacha 70 dan ortiq ilmiy, o’quv uslubiy ishlari nashr etilgan. Jumladan, ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, 2 ta darslik, 4 ta o’quv qo’llanma 10 ga yaqin uslubiy qo’llanma va ko’rsatmalar hamda 1 ta ilmiy-ommabop risola chop etilgan.



ESHMURODOVA GULBAHOR XUSHMURODOVNA

Qarshi Xalqaro universitetida Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari nomzodi

- Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Buyuk Britaniyada ta’lim sohasida tajriba oshirib kelgan.
- 80 ga yaqin ilmiy maqola, o’quv qo’llanmalar muallifi
- “O’quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish mazmuni” nomli monografiyam chop etilgan.

1972 yil 12 fevralda Qashqadaryoning Qarshi shahrida Xudoyzod maxallasida ziyoli oilada tug’ildim.

1979-1989 yillarda Mahalladagi umumta’lim maktabida ish faoliyatimni olib bordim.

1992-1997 yillarda Qarshi Davlat universitetining kunduzgi bo’limida Tarix fakulteti tarix yo’nalishini tamomladim.

1989-1990 yil sovxozda ishladim.

1990-1992 yil Qarshi shahar ko’kalamzorlashtirish korxonasida, 1992-1997 yil talaba, 1997- 2000 yillarda Qarshi shahar 35 o’rta ta'lim maktabida o'qituvchi,

2000-2002 yillarda Qarshi politexnika kollejida derektor o’rinbosari,

2002-2010 yillarda Qarshi Davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchi,

2007 yilda, “O'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish” mavzusida pedagogika fanlari nomzodi bo’ldim. Qori Niyoziy nomidagi ilmiy tekshirish institutida himoya qildim.

2010-2014 yillarda Qarshi Davlat universiteti, “Pedagogika. Psixologiya va maktabgacha ta'lim” kafedrasi dotsenti.




2014-2015 yillarda “Boshlang’ich ta'lim” kafedrasi dosenti.

2015-2022 yillarda Qarshi davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti. 2022 yil sentyabrdan Qarshi Xalqaro universitetida Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti. Uch nafar farzandim bor.

80 ga yaqin ilmiy maqola, o’quv qo’llanmalar muallifiman. Shular qatorida Iqtisodiyot va biznes asoslari, O’quvchilarga

iqtisodiy bilimlar berishning samarali yo’llari, O’quvchilarga iqtisodiy bilimlar berishda ishchan o’yinlardan foydalanish, Noan’anaviy



dars o’tish usullari, Iqtisod fanini o’qitilishida interfaollik va iqtisodiy tushunchalar, “Iqtisodiy bilim asoslari” fani o’qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, Iqtisodiy bilimlar - bozor iqtisodiyotining nazariy asosi, Amaliy mashg’ulotlarda rolli va ishchanlik o’yinlaridan foydalanishning o’rni.

Amaliy mashg‘ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, “Hay – ibn - Yaqzon”da maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik rivojlantirish g‘oyalari, Iqtisodiy faoliyatga shaxs psixologik xolatlarining ta’siri, Bitiruvchilarni kichik tadbitkorlikka tayyorlash-dolzarb pedagogik muammo sifatida, Yoshlarda turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari, Boshlang‘ich sinf darsliklarini yaratish muammolari, Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni ma’naviy - axloqiy jihatdan tarbiyalashda ma’rifiy tadbirlarning ahamiyati, Konstitutsiya davlatning huquqiy asosidir, Yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini oshirish omillari, Milliy o‘zlikni anglashning yoshlar ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini oshirishdagi o’rni, Bolalarni rivojlantirish va har tomonlama kamol toptirishda maktabgacha ta’lim muassasalarining roli, Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachining ma’naviy-marifiy ishlar rejasini loyihalash, Maktabgacha ta’lim muassasalari va oilada moddiy-ma’naviy tarbiyaning dastlabki tushunchalarini shakllantirish, Tarbiya texnologiyalarini qo’llashda pedagogik vosita va metodlardan foydalanish, Sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarni kasb-hunarga yo’llash, Ta’limning kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida ma’naviy madaniyatni shakllantirishdagi o’rni, Umumta’lim maktablarida yoshlarni mehnat jarayoniga tayyorlash va kasb-hunarga yo’natirish



jarayoni, Ta’lim jarayonini turli yondoshuvlar asosida tashkil etish, Barkamol insonni tarbiyalashda pedagogik qonuniyatlarning dolzarbligi, Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyati va iqtidorlarini rivojlantirish, Ta’lim-tarbiya jarayonida musiqaning ta’limiy rivojlantiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlarini amalga oshirish, Bolalarning musiqiy qobiliyatlari va iqtidorlarini rivojlantirishda umumdidaktik tamoyillar, Ta’lim samaradorligini oshirishda talabalar sport sog’lomlashtirish mashg’ulotlarini tashkil etishning o’rni, Ta’lim samaradorligini oshirishda talabalar sport sog’lomlashtirish mashg’ulotlarini tashkil etishning o’rni, Oilada yoshlarda zararli odatlarga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish, Oilada bolalar xissiyotini boshqarishning o’ziga xos pedagogik-psixologik jihatlari kabilarni misol qilishim mumkin.



2002 yilda Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Buyuk Britaniyada ta’lim sohasida tajriba oshirib kelganman.

Ilmiy maqolam uchun "Science and Innovation" xalqaro ilmiy jurnali tomonidan sertifikat bilan taqdirlandim.



2022 yil Science and innovation International scientific journal “Qadimgi Rim va Yunonistonning ta’lim-tarbiya maktabi” nomli ilmiy-maqolam chop etildi hamda ilmiy maqolam uchun "Science and Innovation" xalqaro ilmiy jurnali tomonidan sertifikat bilan taqdirlandim.

2022 yil avgust oyida International of Discoveries and Innovations in Applied Sciences jurnalida «The View of the Scolars of the Renaissance Period Based on a Special Approach to Pedagogy and Education» nomli maqolam ham chop etilib International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences jurnali tomonidan sertifikat bilan taqdirlandim.



2022 yil Web of Scholars: Multidimensional Research Journal (MRJ) da «The Role of Education in Educational Educators of Ormal Homes in Uzbekistan to Make Perfect Human Beings » nomli maqola bosmadan chiqarildi va ilmiy maqola uchun “Web of Scholars: Multidimensional Research Journal (MRJ)” xalqaro ilmiy jurnali tomonidan sertifikat bilan taqdirlandim.

2022 yil “O’quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish mazmuni” nomli monografiyam chop etildi.



TOSHPO‘LATOVA NARGIZAXON MAMARIZAYEVNA

Farg‘ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazida “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o’qituvchisi

- Qozog‘iston Respublikasi Nur-Sultan shahrida bo‘lib o‘tgan “1-Xalqaro kitob taqdimoti” Xalqaro ko‘rik tanlovi g‘olibi.
- Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqyosida 2021- yilning “Eng faol pedagogi” nomli ilmiy unvonga sazovor bo‘lgan.

Toshpo‘latova Nargizaxon Mamarizayevna 1978-yil 29-may kuni Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahrida tug‘ilgan. Otasi Toshpo‘latov Mamarizojon - Muhandis (nafaqada). Onasi Hasanova Rohilaxon - Marg‘ilon shahar 29-umumta’lim maktabining chet tili fani o‘qituvchisi (nafaqada). Oilada 5 farzandning biridir. Marg‘ilon shahar 29-umumta’lim maktabida o‘qib, tahsil olgan. Maktabda o‘qib yurgan vaqtida turli tadbirlar hamda fan olimpiadalarida ishtirok etgan. Xorijiy tillardan ya’ni nemis tili fanidan 2 marta Respublika olimpiadasida ishtirok etgan. Onasi Rohilaxon Hasanova Nargizaxonning hayotdagi va maktabdagi ustozidir. Shuningdek, Nargizaxonga o‘qituvchilik kasbiga havas uyg‘otdi. Toshpo‘latova Nargizaxon 1995-yilda Farg‘ona davlat universitetining xorijiy tillar filologiya fakultetiga o‘qishga kirib, 1999-yilda roman-german filologiyasi fakultetini bakalavr darajasini imtiyozli diplomga yakunladi.



1999-yilda Farg‘ona shahar 19 - maktabda xorijiy tillar fani o‘qituvchisi lavozimida ish

boshlagan. Xorijiy rus, nemis, ingliz, lotin tillarini biladi. 2001-yildan boshlab Marg‘ilon shahar maktablarida faoliyat olib borgan. 2007 - yil Farg‘ona Davlat Universitetining pedagogika magistratura yo‘nalishiga o‘qishga kirdi. 2007-2009 yillar Magistratura davrlari. 2009 - yil Farg‘ona Davlat Universitetida “Uyg’onish davri mutafakkirlarining pedagogik qarashlari” Magistrlik dissertatsiyani yozib, muvaffaqiyatli himoya qildi. 2009 - yilda Pedagogika bo‘yicha Magistr darajasini olgan.



2014 - yildan boshlab Farg‘ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazida faoliyatini boshladi. Ayni vaqtda Farg‘ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazida “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasining “Pedagogning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish” fani o‘qituvchisi lavozimida faoliyat olib boradi.



2021-yilda Qozog‘iston Respublikasi Nur-Sultan shahrida bo‘lib o‘tgan “1- Xalqaro kitob taqdimoti” Xalqaro ko‘rik tanlovida ishtirok etib, 1-o‘rinni egallab, g‘olib bo‘ldi. “Fan va ta’limga qo‘shgan hissasi uchun” Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqyosida 2021- yilning “Eng faol pedagogi” nomli ilmiy unvonga sazovor bo‘ldi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan muhim ustuvorliklarni ijrosini ta’minlash, amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etayotgan yutuqlarda, samarali ilmiy faoliyatda alohida o‘rnak bo‘layotgan fuqarolarni munosib taqdirlash maqsadida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqyosida tashkil etilgan “Tashabbuskor islohotchi” tanlovini o‘tkazish belgilangan. 2022-yilning 24-25- sentyabr kunlari Samarqand shahrida “Tashabbuskor islohotchi” tanlovida ishtirok etgan g‘oliblarni taqdirlash tadbiri bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbirda Toshpo‘latova Nargizaxon Mamarizayevna “Tashabbuskor islohotchi” unvoni bilan taqdirlandi.



Toshpo‘latova Nargizaxon Mamarizayevna “Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazining sertifikat, diplom, tashakkurnoma, esdalik nishoni, belgisi, guvohnoma hamda sovg‘asi bilan taqdirlandi.

Toshpo‘latova Nargizaxon Farg‘ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazida tinglovchilarga ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni belgilangan tartibda olib borib,ularning hurmatiga sazovor bo‘lib kelmoqda.U tinglovchilar uchun,davra suhbatlari o‘tkazish tajribasiga, guruhda ishlay olish malakasiga ega. Shuningdek, Toshpo‘latova Nargizaxon o‘z ustida tinmay izlanadi,doimiy ravishda o‘z malakasini, siyosiy, ilmiy-nazariy va metodik saviyasini oshirish ustida qat’iyat va sabr-toqat bilan

ishlaydi.



Viloyat miqyosidagi ta’lim maskanlarida o‘tkaziladigan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etadi. Viloyatdagi barcha ta’lim maskanlarida seminar-treninglar tashkil etadi.



Olgan bilim va egallagan malakalarini hamkasblari,tinglovchilarga yetkazish va yoyish, ushbu yo‘nalishda qo‘llanma va ishlanmalar yaratishda ishtirok etish qobiliyatiga ega. Tayyorlagan ilmiy maqolalari bilan xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalari, ilmiy jurnallarda faol ishtirok etib kelmoqda. 2022-y O‘zbekiston iftixorlari” to‘plam kitobi uchun tarjimai hol ma’lumoti jo‘natildi.

Toshpo‘latova Nargizaxon jahon faylasuflari, mutafakkir, shoirlarining asarlarini rus, nemis, ingliz tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilish bilan shug‘ullanadi. Kelgusida ushbu tarjimalarni to‘plam kitobda taqdim etmoqchi.



Maqsadi - Jahon mutafakkirlari hamda adiblarining faoliyatini tarjima qilib, ommalashtirish. Xalqimizni ushbu noyob qo‘lyozma asarlar bilan tanishtirish.

Hozirda Toshpo‘latova Nargizaxon “Haynrix Hayne” asarlari o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari matnining leksik-semantik tadqiqi” mavzusidagi - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

U samimiy, ijodkor, yangilikka intiluvchi, izlanuvchan, tashabbuskor, jur’atli, to‘g‘riso‘z, ma’naviy yetuk, doimo mehribon va ga‘mxo‘r inson. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazi faoliyatidagi barcha ishlarni bajarishda uning

alohida o‘rni bor. Toshpo‘latova Nargizaxon Mamarizayevna kelgusida o‘z ustida ishlashni davom ettirib, sidqidildan mehnat qilib, pedagoglik sharafli ishida o‘zining beminnat yordamini ayamaydi hamda O‘zbekiston Respublikasining gullab - yashnashiga o‘z munosib hissasini qo‘shadi.



XUSHBOQOVA NIGORA G‘AYRAT QIZI

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

- Indoneziyaning “Asih sasami indonesia global writers”, Hindistonning “The cause of noble mission of peace, justice, universal brotherhood, love & nature on earth”, Indoneziyaning “Juntos por las Letras”, Misrning ”Creativity Forum for Culture, Arts and Peace” kabi xalqaro fondlar a'zosi.
- ,,Renessans davri: Ilmiy-tadqiqotlar yetakchisi” esdalik ko‘krak nishoni egasi.
- 50 dan ortiq ilmiy ishlari respublika va xalqaro jurnallar va konferensiyalarda chop etilgan.

Xushboqova Nigora G‘ayrat qizi 2003-yil 18-noyabrda Surxondaryo viloyati tadbirkorlar oilasida tug‘ilgan. 2009-2020-yillarda Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 2-sonli umumta’lim maktabini a’lo baholar va “Oltin medall” bilan tamomladi. Maktabda o‘qiydigan chog‘larida matematika, huquq va ingliz tili bo‘yicha fan olimpiadalarida qatnashib faxrli o‘rinlarni egallagan. 2018-2020-yillar davomida Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 2-sonli umumta’lim maktabining Yoshlar Ittifoqi sardori lavozimida faoliyat olib brogan. Maktabni muvaffaqiyatli tamomlaganidan so‘ng 2020-yil Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi. Hozirda Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi. Nigora nafaqat universitet miqyosida balki respublika miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlar va tanlovlarda ham muntazam ishtirok etib, yuqori natijalarni qo‘lga kiritib kelmoqda.

Jumladan:

1.2021-yil aprel oyida “Academicia An International Multidisciplinary Research Journal” nomli xalqaro jurnalda “Gender equality and its importance in Uzbekistan and other countries of the world” nomli maqolasi chop etilib, xalqaro darajadagi sertifikat bilan;

2.2022-yil iyun oyida “Universum: экономика и юриспруденция” nomli xalqaro ilmiy jurnalda “Республика узбекистан: история развития гражданского права” nomli maqolasi chop etilib, xalqaro sertifikat bilan;

3.2022-yil aprel oyida “Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada “Fuqarolik jamiyati: xalqparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va huquqiy masalalari” nomli maqolasi bilan ishtirok etib, sertifikat bilan;

4.2022-yil may oyida bo‘lib o‘tgan “International Forum of Talented Youth”nomli forumda “Grants and Study Abroad” kategoriyasi bo‘yicha faol ishtirok etganligi va kreativ g‘oyalari uchun sertifikat bilan;

5.2022-yil iyun oyida Xorazm Ma’mun akademiyasi ko‘magida ta’sis etilgan ““Involta” Innovation Scientific Journal” da “O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida ma’muriy huquqning tutgan o‘rni” mavzusida maqolasi chop etilib, sertifikat bilan taqdirlangan.

Nigora huquq sohasidagi izlanishlarini ustozlari yuridik fanlar doktori, professor Jumanazar Toshtemirovich Xolmo‘minov va Yuridik fakulteti “Davlat va huquq nazariyasi va tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi Islom Rahmatulloyev bilan birga olib bormoqda. Shuningdek, hozirgi kungacha izlanishlari natijasida 50 dan ortiq ilmiy ishlari respublika va xalqaro jurnallar va konferensiyalarda chop etilgan.

Shu bilan bir qatorda, 2022-yil iyul oyi davomida “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Shohida Yusupova tomonidan tashkil etilgan “Shine Girls Academy”ning shaxsiy rivojlanish va Xalqaro maydonga chiqishga qaratilgan onlayn kursida tahsil oldi va uni muvaffaqiyatli tugatdi. Kurs mobaynida Indoneziyaning “Asih sasami indonesia global writers” nomli xalqaro fondining, Hindistonning ,,The cause of noble mission of peace, justice, universal brotherhood, love & nature on earth” nomli IQRA fondining, Indoneziyaning “Juntos por las Letras” nomli xalqaro yozuvchilar guruhining, Misrning ”Creativity Forum for Culture, Arts and Peace” nomli xalqaro fondining faxriy a’zosi etib tayinlandi hamda Akademiyaning maxsus sertifikati bilan taqdirlandi.

Nigoraning yana bir eng katta bir yutuqlaridan biri uning ,,History Of The Development Of Civil Law In Uzbekistan” nomli ilmiy maqolalar to‘plami AQSHning nufuzli ,,Amazon” nashriyotida 1000 nusxada chop etilib, dunyoning 26 davlatida sotuvga qo‘yildi.



Shu bilan bir qatorda Moldovaning ,,Globe Edit” nashriyotida ,,O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi haqida ma’lumotlar” va ,,O‘zbekiston Respublikasida barcha huquq tarmoqlarining rivojlanishi” nomli ilmiy maqolalar to‘plami chop etildi. ,,Renessans davri: Ilmiy-tadqiqotlar yetakchisi” Xalqaro ilmiy-amaliy tanlovi va Xalqaro konferensiyaga yuborgan ilmiy maqolasi qabul qilinib, ,,Renessans davri: Ilmiy-tadqiqotlar yetakchisi” esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

O‘zbekistonning eng iqtidorli yosh ijodkorlari, yozuvchi va shoirlari, talabalarining ijodiy ishlari jamlangan xalqaro antologiya ,,Talented Voices of Uzbekistan” nomi bilan Amerikaning ,,Amazon” nashrida chop etilib, dunyoning 26 davlatida sotuvga qo‘yildi. Ushbu antologiyadan Xushboqova Nigoraning ilmiy maqolasi ham joy olgan.

Nigoraning yana bir yutuqlaridan biri shuki, O‘zbekistonning har tomonlama iqtidorli, faol, jamiyatda o‘z o‘rniga ega, ilmli qizlarining muvaffaqiyatli hayot yo‘li jamlangan xalqaro antologiya ,, Leader girls lead the world” nomi bilan Amerikaning ,,Amazon” nashrida chop etildi va dunyoning

turli mamlakatlarida sotuvga qo‘yildi va ushbu antologiyaga Nigoraning ham ibratli hayot yo‘lini loyiq deb bilishdi. Nigora shunga qaramay to‘xtab qolgani yo‘q. 2022 yil 20 dekabr kuni “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali tomonidan ta’sis etilgan “Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishoniga sazovor bo‘ldi.



ALIMOVA MADINAXON ISKANDAR QIZI

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi Respublika ixtisoslashtirilgan sanitar-tozalash korxonalari birlashmasi investitsiya va istiqbolli loyihalar bo‘yicha yetakchi mutaxassisi

- “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Gidromeliorasiya fakulteti, 11.00.05 “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” mustaqil tadqiqotchi (PhD)
- Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan “Tashabbuskor islohotchi” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovida ko’krak nishoni sohibasi.

Alimova Madinaxon Iskandar qizi 07.09.1993 yil, Toshkent shahri, Yunusobod tumanida tug‘ilgan.

2008-yil – 2011-yil – 3-son jahon tillari litseyida “Kamolot” YIH yordamchisi, boshliq o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan.

2009 yil – 2010 yil – Toshkent kimyo-texnologiya instituti kadrlar bo‘limi assistenti lavozimida ishlagan.

2013-yil - 2013-yil – 22-sonli mehribonlik uyida ingliz tili o‘qituvchisi – volonter bo‘lib ishlagan – BMTning “O‘zbekistonda ijtimoiy innovatsiyalar va volonterlik” loyihasida.

https://www.unv.org/Success-stories/standing-positive-change



“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Gidromeliorasiya fakulteti, 11.00.05 “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” mustaqil tadqiqotchi, xamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi Respublika ixtisoslashtirilgan

sanitariya-tozalash korxonalari uyushmasi investitsiya va istiqbolli loyihalar bo‘yicha yetakchi mutaxassisi.

Dastavval, 2011-2015 yillarda Toshkent kimyo-texnologiya Instituti “Biotexnologiya” yo’nalishini tamomlagan.



2015-2018 yillarda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” yonalishi xalqaro magistratura tamomlagan.

Bundan tashqari, bir nechta davlatlarga grant sohibi bolib borib kelgan, masalan Kyrgyzston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi.

2021-yil avgust – yozgi maktab dasturini muvaffaqiyatli yakunladi, “Zamonaviy jamiyatda shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi” mavzusida Qirg‘iziston Respublikasida o‘tkazilgan 100% grant yutib oldi.

2021-2023 Global tinchlik zanjirida Global tinchlik elchisi sifatida taqdirlangan.

2022 yil mart - Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (YXHT) suv siyosati sohasidagi tadqiqoti sohasida Markaziy Osiyo yosh tadqiqotchilari uchun “Diplomatiya uchun ilm” seminari muvaffaqiyatli yakunlandi, Tojikiston Respublikasida o‘tkazilgan bo’lib 100% grant yutib oldi.

2022 yil iyun – Qozog‘iston Respublikasidagi Qozog‘iston milliy agrar universitetida tuproqshunoslik, agrokimyo va ekologiya yo‘nalishida o‘tkazilgan Xalqaro yozgi maktabni muvaffaqiyatli tamomladi.



2022 yil IELTS uchinchi marta 6.0 bal bilan muvaffaqiyatli topshirdi.

2022 yil attestasiyadan o’tib 11.00.05 “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” fanidan besh yil muddati bilan guvohnoma qolga kiritdi.

Xozirgi kunda VAKga kirgan 10 **dan ziyod** ilmiy maqolalari mavjud.

2022 yilda Scopus bazasida ilmiy maqola “Biological treatment of industrial and domestic wastewater of a brewery in Uzbekistan” nashr etildi.

2022 yil sentabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan “Tashabbuskor islohotchi” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovida ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.



M.Alimovaning faoliyati davomida **20 dan ziyod** pedagogikaga oid maqolalari Respublika, mintaqaviy hamda ommabop jurnal, gazetalarda chop etilgan.

Yaqinda Madina Xindistondagi maktablaridan biri Ekologiya mavsudagi "Tabiiy resurlar va chiqindilarni saralash va innovasiyalar" oquvchilarga online maruza o'tdi. Shu bilan birga 2022 yil mart oyida Toshkent shaxrida joylashgan maktablarning birida "Chiqindilarni boshqarishning axamiyati" mavzusida dars o'tdi.

Hozirgi kunda M.Alimovaning shogirtlari juda ko‘p va ularning soni kundan kunga oshib bormoqda.

M.Alimova faoliyati davomida o‘zining xalqparvarligi, adolatparvarligi, fidoyiligi, tirishqoqligi, talabchanligi, o‘ziga bildirilgan ishonch va ma’suliyati, masalaga chuqur va tahliliy yondashishi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqida ham o‘z o‘rniga ega.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ekologiya jarayonlarga munosabat bildiruvchi, ta’lim loyihalari ishlab chiqishda xalqchil va yurt ravnaqiga naf keltiradigan g‘oya va takliflari va o‘z pozitsiyasini bildirishga tayyor yoshlarda bilish faoliyatining aniq maqsadga yo’nalganligini shakllantirish, ta’lim va tarbiyani birgalikda olib borgan holda xalqimizga munosib ekologlarni yetishtirishni asosiy vazifasi sifatida biladi.



JALOLOVA YULDUZ MUHIDDIN QIZI

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori

- MDH miqyosida tashkil etilgan “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovi g’olibi.
- MDH miqyosida tashkil etilgan “Tashabbuskor islohotchi” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovi g’olibi.
- 20 dan ziyod pedagogikaga oid maqolalari Respublika, mintaqaviy hamda ommabop jurnal, gazetalarda chop etilgan.

Jalolova Yulduz Muhiddin qizi 28.09.1992 yil, Jizzax viloyati G’allaorol tumanida tug‘ilgan. Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori.



Dastavval, 2013-2017 yillarda Jizzax Davlat Pedagogika Instituti “Informatika o’qitish metodikasi” yo’nalishini tamomlagan. 2018 yilda Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha ta’lim fakulteti dekanatida ish yurituvchi lavozimida ish faoliyatini boshlagan. 2019-2021 yillarda Jizzax Davlat Pedagogika Instituti “Pedagogika nazariyasi va tarixi yo’nalishi” magistarura bosqichini tamomlagan. 2020-2021 yillar davomida Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 31-umumiy o’rta ta’lim maktabida Informatika fani o’qituvchisi, 2021 6-sentabrda Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika va psixologiya fakulteti Umumiy pedagogika kafedrasi kabinet mudiri, 2021-yil 18-oktabrdan boshlab Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori lavozimida faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, “Bizning

kelajagimiz” MCHJda direktor vazifasida ham tadbirkorlik faoliyatini olib bormoqda.



2020- yilda “Obrazovanie i vospitanie” xalqaro jurnalida “Formirovanie u uchenikov chuvstva obshnosti” ilmiy maqolasi, 2021-yili “Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanida “Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari” nomli ilmiy maqolasi, 2021- yilda Yevroosiyo ilmiy tadqiqotlar jurnalida “**O’qitish jarayonida zamonaviy yondashuv ahamiyati”** nomli ilmiy maqolalari nashr etilgan.



2022-yilda **“**International scientific-online conference INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION" xalqaro Canada (Ottawa) konfrensiyasida “Globallashuv sharoitida umumta’lim fanlarini o’qitish muammolari” nomli,” International scientific-online conference on innovation in the modern education system” xalqaro Amerika (Washington) konferensiyasida “Importance of technology in education” nomli ilmiy maqolalari nashr etilgan. “Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo’llanilishi” nomli Respublika ilmiy konferensiyasida “**O’quvchi-yoshlarda dunyoqarashni shakllantirishda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanish**” nomli ilmiy maqolalari nashr etilgan. Hozirda mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Hususan, “International scientific-online conference: ”Theory and analytical aspects of recent” xalqaro Turkiya (Istanbul) konferensiyasida “O’zbekistonda kambag’allik darajasi. Kambag’allikni kamaytirish uchun nima qilish kerak?” nomli, ”Euraasian Journal of Academic Research” xalqaro jurnalida “Importance internet in education”, “Obrazovanie I nauka v XXI veke” jurnalida “O’zligimiz timsoli-ona tilim”, “International scientific-online conference Models and methods for increasing



the efficiency of innovative research” Xalqaro GERMANIY (BERLIN) konferensiyasida “Usage of music in teaching vocabulary” nomli va boshqa mavzu va tezislar bo‘yicha ilmiy maqolalari nashr etilmoqda.

2022 yil 5-iyunda MDH miqyosida tashkil etilgan “**Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun**” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovida, 2022 yil 25-sentabr kuni MDH miqyosida tashkil etilgan “**Tashabbuskor islohatchi**” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovlarida

ko’krak nishonlari bilan taqdirlandi.



Y.Jalolovaning faoliyati davomida **20 dan ziyod** pedagogikaga oid maqolalari Respublika, mintaqaviy hamda ommabop jurnal, gazetalarda chop etilgan. SHuningdek, **5 dan ortiq** Respublika va mintaqaviy ommaviy axborot vositalarida intervyulari yoritilgan.

Y.Jalolova faoliyati davomida o‘zining xalqparvarligi, adolatparvarligi, fidoyiligi, tirishqoqligi, talabchanligi, o‘ziga bildirilgan ishonch va ma’suliyati, masalaga chuqur va tahliliy yondashishi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqida ham o‘z o‘rniga ega.

Mamlakatimizda olib borilayotgan pedagogik jarayonlarga munosabat bildiruvchi, ta’lim loyihalari ishlab chiqishda xalqchil va yurt ravnaqiga naf keltiradigan g‘oya va takliflari va o‘z pozitsiyasini bildirishga tayyor yoshlarda bilish faoliyatining aniq maqsadga yo’nalganligini shakllantirish, ta’lim va tarbiyani birgalikda olib borgan holda xalqimizga munosib pedagoglarni yetishtirishni asosiy vazifasi sifatida biladi.



TESHABOYEVA NODIRA DJURAYEVNA

Farg‘ona politexnika institutining Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi katta o‘qituvchisi

- Fakultet xotin - qizlar kengashi raisi.
- “O‘zbekiston ayollarining 100ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” III Respublika tanlovining Farg‘ona viloyati bosqichi ”Fan” yo‘nalishi g’olibasi
- 250 dan ziyod ilmiy-uslubiy ishlar, Beton ishlari texnologiyasi nomli darslik, 200 dan ortiq Ilmiy texnik jurnallarda ilmiy maqolalar chop ettirgan.

Teshaboyeva Nodira Djurayevna 1953-yil 14-iyunda Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shaxrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. 1969-yilda Farg‘ona politexnika institutiga o‘qishga kirib, 1974-yilda o‘qishni muvafaqqiyatli tugatgan, shu yili Farg‘ona politexnika institutiga ishga qabul qilingan.

Teshaboeva Nodira Djuraevna 1959-yilda Marg‘ilon shahridagi 8-o‘rta maktabga kirib, 1969-yilda maktabni 10 sinfini tugatgan va shu yili Farg‘ona politexnika instituti Qurilish fakultetiga o‘qishga qabul qilingan.O‘qishni 1974-yilda bitirib, institutda mehnat faoliyatimni boshladim.

Mehnat faoliyatini 1974-1998-yillarda Farg‘ona politexnika instituti gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar kafedrasi assistenti bo‘lib ish boshlagan.

1998-2004-yillarda - Farg‘ona politexnika instituti gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar kafedrasi katta o‘qituvchisi bo‘lib faoliyat olib borgan.

2004-2005-yillarda - Farg‘ona politexnika instituti qurilish muhandislik fanlari zamin va poydevorlar kafedrasi katta o‘qituvchisi bo‘lib ishladi.

2000-2007yy.- Farg‘ona politexnika instituti Qurilish fakulteti ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan muovini vazifasida faoliyat olib borgan.

2005-2011-yillarda - Farg‘ona politexnika instituti yer tuzish va yer kadastri kafedrasi katta o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan.

2011-2018yillarda - Farg‘ona politexnika bino va inshootlar qurilishi, geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasi katta o‘qituvchisi bo‘lib ishladi.

2018-2021-yillarda Farg‘ona politexnika institutining bino va inshootlar qurilishi kafedrasi katta o‘qituvchisi bo‘lib ishlab kelmoqda. Fakultet xotin- qizlar kengashi raisi vazifasida ham faoliyat olib boraman.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

sanoat KHK- qurilish ixtisosligi talabalari uchun “Beton ishlari texnologiyalari” nomli darslik tayyorlab, 2019-yili chop etilgan.



Gruntlar mexanikasi zamin va poydevorlar fanidan oliy maktab talablari darajasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llab, ma’ruzalar va tajriba mashg‘ulotlarini olib bormoqda. Mashg‘ulotlarda turli interfaol metodlardan keng foydalanib, dars mashg‘ulotlarini olib boradi.

Kasbiy ta’lim rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. “Gruntlar mexanikasi zamin va poydevorlar” fanidan 5340300 SHQX yo‘nalish talabalari uchun darslik tayyorlanib, Muvofiqlashtiruvchi kengashga topshirilgan va 2019-yilda nashriyotda chop etilgan.

Talabalar va keng jamoatchilikning ma’naviy- ahloqiy dunyoqarashni o‘stirish maqsadida “Ezgulik sari” nomli to‘plamni kitob shaklida tayyorlanib, 2019yilda chop etildi. 5610100 XS yo‘nalishiga amaliy mashg‘ulot uchun “Gruntlar mexanikasi zamin va poydevorlar” fanidan o‘quv qo‘llanma tayyorlab, muvofiqlashtiruvchi kengashga tavsiya etildi va 2020-yilda nashr etildi. “Повышение качества гидротехнического бетона с импользованием различных поверхностно- активных гидрофобных химических добавок” nomli Monografiyani nashrga tayyorlab, 2020yilda chop etildi. Fan bo‘yicha yangi laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish kabi masalalariga ko‘ra talabalarni UzGASHK LITI (Qurilishda muxandislik qidiruvlari Geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy – tekshirish Davlat instituti Farg‘ona filiali) Farg‘ona politexnika instituti o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosan maxsus tashkil etilgan laboratoriya xonasida laboratoriya ishlarini bajarish uchun talabalar qatnashmoqdalar. Bu borada UzGASHK LITI (Qurilishda muxandislik qidiruvlari Geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy – tekshirish Davlat instituti Farg‘ona filiali) amaliy yordam ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, 2010-yil 4-8-oktabrda Ukraina Respublikasi Yalta shaxrida 18 halqaro konferensiyada “Современные методы и средства неразрушающего контроля и технической диагностики” mavzusida bo‘lib o‘tgan konferensiyada ishtirok etgan.



O‘zbekiston Xotin - qizlar qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston ayollarining 100ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” III Respublika tanlovining Farg‘ona viloyati bosqichida 2020-

yilda ”Fan” yo‘nalishi bo‘yicha qatnashib, 1-o‘rin sohibi bo‘ldi va Respublika bosqichiga yo‘llanma oldim. 2020yil 5-fevralda Toshkent shahrida “O‘zbekiston ayollarining 100ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” III Respublika tanlovining yakuniy bochqichida qatnashib, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, Xotin - qizlar qo‘mitasi raisi E.Basitxanova tomonidan tashakkurnoma va sertifikat bilan taqdirlandi.



N.D.Teshaboeva 250 dan ziyod ilmiy-uslubiy ishlar, Beton ishlari texnologiyasi nomli darslik, 200 dan ortiq Ilmiy texnik jurnallarda ilmiy maqolalar chop ettirgan. N.D.Teshaboeva oxirgi uch yil faoliyati davrida 20 ta turli ilmiy–amaliy konferensiyalarda ilmiy ma’ruzalar bilan qatnashgan, doim ijodiy izlanishda, hozirgi vaqtda Davlat granti va xo‘jalik sharnomalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarida ham faol qatnashib kelmoqda.

Bir necha bor institut va viloyat xotin qizlar qo‘mitasining “Faxriy yorliq”lari bilan taqdirlangan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti nomzodalari o‘rtasida o‘tkaziladigan viloyat bosqichida komissiya a’zosi sifatida qatnashib kelmoqda.Bir necha fanlardan o‘quv-uslubiy majmualar yaratgan. Keng ommaga mo‘ljallangan ma’naviy- ma’rifiy yo‘nalishda ”Ezgulik sari” nomli to‘plami chop etilgan. Ma’naviy ma’rifiy yo‘nalishda fakultet talaba qizlari bilan “Qizlarjon” to‘garagini yuritmoqda. Ko‘pgina turli tadbirlar va telegram kanallari tashkillab, “Bunyodkor qizlar”, “Iste’dodli qizlar” va “Quruvchi qizlarjon” telegram kanallarida talaba qizlar bilan turli kechalar va shoiralar, turli soha vakillari bilan onlayn muloqotlar tashkillagan audio muloqotlar o‘tkazilgan.

Jumladan gazeta va jurnallarda maqolalari chop etilgan. “Armon” (2006), “Hayolimda yashagin bolam” (2008), “Sog‘intirib yashagim kelar” (2012),”Sen javobsiz so‘roqsan”, “Umidli dunyo” (2019) nomli she’riy to‘plamlari chop etilgan.



N.D.Teshaboeva,institutning ijtimoiy xayotida faol qatnashib kelmoqda. Jamoa orasida alohida hurmatga ega. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti nomzodlari o‘rtasida o‘tkaziladigan viloyat bosqichida komissiya a’zosi sifatida qatnashib kelmoqda. Adolat SDP a’zosi. Bir necha bor institut va

viloyat hokimi, xotin qizlar qo‘mitasining



“Faxriy yorliq”lari bilan taqdirlangan. Adolat SDP tavsiyasi bilan 2014-yilda Farg‘ona shaxar kengashidan shahar kengashiga 5-To‘qimachi saylov okrugidan deputatlikka nomzodi ko‘rsatilgan. 2016-yilda O‘zbekiston Respublikasi prezident saylovida Adolat SDP partiyasi shahar kengashi tomonidan Farg‘ona politexnika institutida №723 saylov uchastkasida nazoratchi etib tayinlangan.

O‘z faoliyati davomida iqtidorli talabalar bilan ishlashga katta e’tibor beradi. Fakultet talaba qizlari bilan turli kechalar va tadbirlarni tashkillashga boshchilik qilib kelmoqda. Institutning ijtimoiy hayotida faol qatnashib kelmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDX) miqyosida tashkil etilgan “Eng yaxshi ilmiy maqola-2021” yil halqaro ilmiy amaliy tanlovi uchun tayyorlangan maqolasi qabul qilindi. Farg‘ona viloyati, Marg‘ilon shahridagi Raqamli texnologiyalar markazi majlislar zalida “Vodiychasiga kutib olamiz” shiorini ruxiga jo qilgan holda tashabuskor yoshlar 2021-yil 31-oktabr kuni soat 11da Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDX) miqyosida tashkil etilgan “Eng yaxshi ilmiy maqola-2021” yil halqaro ilmiy amaliy tanlovi va taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Marg‘ilon shaxridagi Raqamli texnologiyalar markazi majlislar zalida mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan "Eng yaxshi maqola - 2021" Xalqaro ilmiy tanlovining ochilish hamda tantanali taqdirlash marosimidan lavhalar. "Geodeziya kartorgrafiya kadastr" kafedrasi katta o‘qituvchisi Teshaboeva Nodira Djuraevna "Пластично- вязкие характеристики цементных систем с поверхностно- активными добавками" mavzusidagi ilmiy maqolasi bilan ishtirok etib ko‘krak nishoni va esdalik nishoni guvohnomasi va sertifikat bilan taqdirlandi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan “Eng yaxshi pedagog-2021” xalqaro tanlovi uchun uchun tayyorlangan maqolasi qabul qilindi.



Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan “Tashabuskor islohotchi” halqaro ilmiy - amaliy ko‘rik tanlovida ishtirok etgan. “Tashabbuskor islohotchi” xalqaro tanlovining taqdirlash

marosimi “Yer yuzining sayqali Azim shahar, qadimiy va hamisha navqiron Samarqandga ilm-fan sohasida yuksak yutuqlarga erishgan, tadqiqotchi, ilmsevar hamyurtlarimiz 2022yil 24-25-sentabr kunlari ishtirok etdilar.

“Renessans” ilmiy markazi va nashriyot uyi tomonidan Renessans davri: “Ilmiy - tadqiqotlar yetakchisi” Xalqaro ilmiy, amaliy tanlovi va Xalqaro konferensiya Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filiali MDU (MGU) da Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi.

“Ilm fan fidokori” Mustaqil davlatlar Xamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy –amaliy ko‘rik tanlovi 25.10.2022y Farg‘ona viloyati Rishton tumani Madaniyat saroyida bo‘lib o‘tdi. Yangi O‘zbekistonni gullab yashnab gullashi va rivoji uchun ulkan hissa qo‘shib kelayotgan fidoyi, bilimdon, izlanuvchan va intiluvchan ilm - fan egalari uchun tashkillangan tanlovda ishtirok etgan.



QODIROVA GULNOZA QODIRJONOVNA

Namangan muhandislik-qurilish instituti «Kimyoviy texnologiya» kafedrasi dotsenti, Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

- «O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi» III Respublika tanlovining «Eng yaxshi ixtiro» nominatsiyasi g‘olibi.
- «Best IP-2022» - eng yaxshi intellektual mulk ob’ektlari uchun tanlovining «Eng yaxshi ixtiro» nominatsiyasi bo‘yicha II darajali diplom bilan taqdirlangan.

Qodirova Gulnoza Qodirjonovna 2006-yil Namangan muhandislik-pedagogika institutining Texnologiya fakultetiga o‘qishga kirib, 2010-yilda «Kasb ta’limi (Kimyoviy texnologiya)» bakalavriat yo‘nalishini imtiyozli tamomlagan, 2012-yilda Toshkent kimyo-texnologiya institutining «Mineral o‘g‘itlar kimyoviy texnologiyasi» magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistr darajasini olgan. U 2014-yildan 2018-yilgacha Namangan muhandislik-qurilish instituti «Kimyoviy texnologiya» kafedrasida laborant, katta laborant, o‘qituvchi lavozimlarida ishlagan. 2019-2021-yillarda mazkur kafedraning doktoranti sifatida o‘z ilmiy faoliyatini olib bordi hamda 2021-yilda dissertatsiya himoyasisiz ixtiro patentlari asosida «Mahalliy xomashyolar asosida suvda eriydigan organomineral o‘g‘itlar olish texnologiyalarini ishlab chiqish» mavzusidagi 02.00.13 – «Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi» ixtisosligi (texnika fanlari) bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan. 2021-yildan boshlab «Kimyoviy texnologiya» kafedrasi dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.



2020-yilda o‘tkazilgan «O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi» III Respublika tanlovining «Eng yaxshi ixtiro» nominatsiyasi g‘olibi hisoblanadi II-darajali diplom bilan taqdirlangan). O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining «Best IP-2022» - eng yaxshi intellektual mulk ob’ektlari uchun tanlovining «Eng yaxshi

ixtiro» nominatsiyasi bo‘yicha II darajali diplom bilan taqdirlangan. 2022-yilda



viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganligi va jamoat hayotidagi faol ishtiroki uchun Namangan viloyati hokimining Faxriy yorlig‘i bilan mukofotlangan.

G.Q.Qodirova 80 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan 60 dan ortiq ilmiy maqolalar chop ettirgan, 3 ta ixtiro uchun patentlar olgan va oliy ta’limning bakalavriat bosqichi talabalari uchun chop etilgan 1 ta darslik muallifi hisoblanadi. Uning ilmiy izlanishlari suvda to‘la eriydigan, ekologik xavfsiz monoammoniyfosfat hamda yomg‘ir chuvalchangi biogumusidan suyuq bioorganomineral o‘g‘it olish



texnologiyalarini yaratishga bag‘ishlangan bo‘lib, olingan ilmiy natijalar asosida suvda to‘la eriydigan monoammoniyfosfat olish texnologiyasi «Ifoda agro kimyo himoya» MCHJda amaliyotga joriy etilgan, bu esa tomchilab sug‘orish uchun NPK-o‘g‘itlar va suyuq bioorganomineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun Markaziy Qizilqum fosforitlaridan monoammoniyfosfat va qo‘shimchalardan tozalangan ekstraksion fosfat kislota olish imkonini bergan. Shuningdek, yomg‘ir chuvalchangi biogumusini suyuq bioorganomineral o‘g‘itlarga qayta ishlash texnologiyasi «Uychi sohibkor agro eksport» MCHJda amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, natijada yomg‘ir chuvalchangi biogumusidan tomchilab sug‘orish, gidroponika va ildizdan tashqari oziqlantirish talablariga javob beradigan, tarkibida o‘simliklarni o‘stiruvchi va rivojlantiruvchi ekologik xavfsiz stimulyatori bo‘lgan yuqori samarador suyuq bioorganomineral o‘g‘itlar olish imkoniyati yaratilgan.



Suyuq bioorganomineral o‘g‘itdan foydalanish o‘g‘itning foydali ta’sir koeffitsiyentini oshirishni va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini kamaytirishni ta’minlaydi.




G.Q.Qodirova Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi 2014-2015-yillarga mo‘ljallangan IOT-2014-7-9 raqamli «Angren kaolini asosida alyuminiy sulfat olish texnologiyasini joriy etish» mavzusidagi innovatsion loyiha hamda 2015-2017-yillarga mo‘ljallangan A-12-39 raqamli «Mahalliy karbonatli xomashyolardan foydalangan holda kalsiy va magniy fosfatli

o‘g‘itlar olish texnologiyasi» mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda faol ishtirok etdi. Natijada Angren kaolinidan import o‘rnini bosuvchi koagulyant –alyuminiy sulfat ishlab chiqarish texnologiyasini sanoatga tatbiq etish maqsadida «Qo’qon superfosfat zavodi» AJda tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi hamda yangi texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish uchun korxona tomonidan qabul qilingan.



G.Q.Qodirova – tajribali pedagog. U darslarni yuqori saviyada va pedagogik texnologiyaning interfaol strategiyalarini qo‘llab hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib boradi. U kimyoviy texnologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarga ishtiyoqi bo‘lgan yoshlarni maqsadlariga erishishida o‘z hissasini qo‘shib bormoqda. Uning talaba shogirdlari turli ilmiy-ijodiy tanlovlarda g‘olib bo‘lgan. Jumladan, institutning 4-KTKimT-16 guruh talabasi Melikuziyeva Gulhayo «Yil talabasi» tanlovining «Yilning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talabasi» nominatsiyasi bo‘yicha 1-darajali diplom bilan taqdirlangan hamda «Kamolot» YOIH va O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTV tomonidan oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovning Namangan viloyat bosqichida munosib ishtirok etib faxrli И-o‘rinni qo‘lga kiritgan, 32-KimT-21 guruh talabasi Zokirov Muhammadyusuf 2022-yil MDH da tashkil etilgan xalqaro tanlovda “Ilm-fan fidokori” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.



ABDULLAYEVA XURIYATXON ZAFARBEKOVNA

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

- «Oliy ta’lim muassasasining eng yaxshi pedagogi» tanlovining Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasi bo‘yicha «**ENG YAXSHI PEDAGOG**» tanlovi Respublika bosqichi g’olibi.
- O‘zbekiston Kasaba Uyushmasi Federatsiyasi tomonidan o‘tkazilgan «Yilning eng faol yosh mutaxassisi» Republika tanlovining «Eng faol yosh olimi» nominatsiyasida ishtirok etib fahrli 2-darajali diplom bilan taqdirlangan.

1986 yil 26 yanvarda Andijon viloyati Andijon shahrida tug‘ilgan. 2002 yil o‘rta maktabni, 2006 yili Andijon davlat universiteti biologiya fakultetini, 2008 yil Andijon davlat universiteti magistraturasi zoologiya mutaxassisligini tamomlagan.

2006 yildan Andijon shahridagi 25-ixtisoslashtirilgan maktabda biologiya fani o‘qituvchisi lavozimida mehnat faoliyatini boshlagan. 2011-2013 yilari Andijon pedagogika kolledji biologiya fani o‘qituvchisi lavozimida faoliyatini davom ettirgan.



2013-2016 yillarda Andijon qishloq xo‘jalik institutining «O‘simliklarni himoyasi va karantin» kafedrasi assistenti. 2015-2017 yillarda Andijon qishloq xo‘jaligi instituti 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturada faoliyat olib bordi hamda dissertatsiya ilmiy ishini muddatidan oldin muvoffaqiyatli himoya qilib, Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi diplomini olib, jamoadagi barcha tadqiqotchilar uchun o‘rnak bo‘ldi.



O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida 2016 yilda «O‘simliklarni himoya qilish» – ma’lumot maslahat tizimi

mobil ilovasi ro‘yxatdan o‘tgazilib, EHM uchun dasturi yoki ma’lumotlar bazasi uchun Guvohnoma (№ DGU 04019) olgan. 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan o‘tkazilgan «Yangi intellekt -2017» tanlovida «O‘simliklarni himoya qilish» – ma’lumot maslahat tizimi mobil ilovasi «Eng yaxshi EHM uchun yaratilgan dastur va ma’lumotlar bazasi» nominatsiyasida fahrli 3 o‘rinni egallab diplom va pul mukofoti bilan taqdirlangan.



2018 yil O‘zbekiston Kasaba Uyushmasi Federatsiyasi tomonidan o‘tkazilgan «Yilning eng faol yosh mutaxassisi» Republika tanlovining «Eng faol yosh olimi» nominatsiyasida ishtirok etib fahrli 2-darajali diplom bilan taqdirlangan.

Hozirda «O‘simliklar va qishloq xo‘jalik maxsulotlari karantini » kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritib, O‘simliklarni himoya qilish ta’lim yo‘nalishi talabalari va magistrlariga ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib borish bilan birgalikda ularning ilmiy ishlarni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Iqtidorli talabalari orasidan 2-bosqich talabasi Abdulxodiyeva Ziyodaxon 2018 yil Samarqand davlat universitetida «Zoologiya» fani olimpiadasining Respublika bosqichida ishtirok etib 3–o‘rinni egallagan.



Abdullayeva Xuriyatxon Zafarbekovna o‘zini mehnat faoliyati davomida yetuk mutaxassis va pedagog sifatida ko‘rsatdmoqda. U o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini zamon ruhi, milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari bilan uyg‘un bog‘lagan holda talabalarga saboq bermoqda, ma’ruza hamda amaliyot darslarini yuqori ilmiy-uslubiy saviyada o‘tkazmoqda. O‘zining nazariy va pedagogik mahoratini oshirish ustida tinmay ish olib boradi.

O‘zining ilmiy faoliyati davomida 40dan ortiq ilmiy ishlar muallifi va hammuallifi: jumladan 3 ta patent (guvohnoma № DGU 04019) olingan, 1 ta darslik, 4 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta monografiya nashrdan chiqarilgan. Ilmiy jurnallarda 34 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi Scopus bazasida, 22 tasi nufuzli xorijiy jurnallarida, 11 tasi OAK e’tirof etgan Respublika jurnallarida Halqaro gkonferensiyalarda 9 ta va Respublika ilmiy-amaliy gkonferensiyalaricha 16 ta maqola va tezislari chop etilgan.



Ish faoliyati davomida 17 ta bitiriv malakaviy hamda 3 magistrlik dissertatsiya ishiga rahbarlik qilgan. Xozirda 3 ta magistrlik dissertatsiya ishiga ilmiy rahbarlik qilmoqda.



Abdullayeva Xuriyatxon Zafarbekovna 2018 yil «Oliy ta’lim muassasasining eng yaxshi pedagogi» tanlovining Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasi bo‘yicha «**ENG YAXSHI PEDAGOG**» tanlovida ishtirok etib Respublika g‘olibi bo‘ldi.

2019 yil 06.01.09- O‘simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini oldi.

2019 yil dekabr oyida Xitoy xalq Respublikasida o‘tkazilgan «Семинар по технологии сельскохозяйственного производства для Узбекистана» mavzusidagi semidarda ishtirok etgan.

2020 yildan O‘zbekiston **“**Agrar soha ayollari uyushmasi” Andijon viloyati bo’limi a’zosi

2022 yil yanvar oyidan 06.01.09- O‘simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo‘yicha doktoranturada “G‘o‘zaning holati va asosiy zararkunandalari bilan zararlanish daraasini nazorat qilish, prognozlashtirish hamda boshqarish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha faoliyat yuritib kelmoqda.

Shuningdek, 2022 yil aprel oyidan “Tikanli kovul (Cfapparis spinose L.) o‘simligini plantatsiyasini tashkil etish” mavzusidagi amaliy loyihasida loyihara rahbari vazifasida ishlab kelmoqda.

Abdullayeva Xuriyatxon Zafarbekovna doimiy ravishda o‘z malakasini oshirish, siyosiy, iqtisodiy va ilmiy-nazariy bilimlarini mustahkamlash ustida qat’iyat va sabr-toqat bilan ishlaydi. U har ishda tashabbuskor, ma’naviy yetuk, o‘z do‘stlariga nisbatan mehribon va g‘amxo‘r, jamoada o‘z o‘rniga ega.



MUXAMEDOVA FERUZA NURMAXMATOVNA

San'atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O'zbekiston davlat konservatoriyasi Maxsus fortepiano kafedrasi dotsenti v.b.

- 50 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan.
- Xalqaro va Respublika tanlovlari sovrindori.
- Italiya, Gretsiya, Rossiya, Ozarbayjon, Xitoy, Qozog‘iston kabi mamlakatlarda yakkaxon ijrochi va jo‘rnavoz sifatida ishtirok etgan.

Muxamedova Feruza Nurmaxmatovna 1986 yil 7 dekabrda Toshkent shahrida tug`ilgan. 1993-1998 yillari – 9-umumta`lim maktabi va 13-bolalar musiqa maktabi, 1998-2002 yillari – V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan maxsus musiqa maktabi, 2002-2005 yillari – O`zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi akademik litseyida tahsil olgan. 2005-2009 yillari O`zbekiston davlat konservatoriyasining “fortepiano ijrochiligi” mutaxassisligi bo`yicha bakalavriat bosqichi va 2009-2011 yili magistratura bosqichi, 2012-2013 yillari assistentura-stajirovka (to`xtatilgan), 2016-2018 yillari tayanch doktoranturada tahsil olgan.

1998-yil Italiyada o`tkazilgan Xalqaro tanlovda 3-o`rin olgan. 2002 yili Moskva shahrida o`tkazilgan “Yangi nomlar” Xalqaro master-klass dasturida ishtirok etgan. 2000-2003 yillar davomida “Unesco” Xalqaro yozgi ta`lim dasturida ishtirok etgan.



2009-2017 yillari O`zbekiston davlat konservatoriyasi “Akademik xonandalik” kafedrasida konsertmeyster, 2010 – 2015 yillar O`zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi

akademik litseyda “maxsus fortepiano” bo`limi o`qituvchisi, 2013-yildan hozirgi kungacha O`zDK “Maxsus fortepiano” kafedrasi katta o`qituvchisi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, 2020-2022 yillari O`zDK Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo`limi boshlig`i lavozimida faoliyat yuritgan.



Muxamedova Feruza Nurmaxmatovna musiqa san'ati (fortepiano) sohasining pedagogik, ijrochilik va ilmiy-tadqiqot jabhalarida faoliyat yuritib kelmoqda.

U 2020 yil “O‘zbekiston fortepiano musiqasining shakllanishi, janrlarning o‘ziga xosligi, interpretatsiya” mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning ilmiy-tadqiqot faoliyati serhosil bo‘lib, Xalqaro va Respublika jurnal va konferensiya to‘plamlarida 50 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgandir. F.Muxamedova Xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferentsiyalarning faol ishtirokchisidir. Jumladan, 2016 yili Syantszi shahrida (Xitoy xalq respublikasi) o‘tkazilgan Xalqaro san'at va ta'lim forumida ishtirok etib, “Piano education in Uzbekistan” (O‘zbekistonda fortepiano ta'limi) mavzusiga ma'ruza va taqdimot qilgan. 2022 yili Qozon shahri (Rossiya)da o`tkazilgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi plenar yig`ilishida taqdimot-ma`ruza bilan ishtirok etgan.

F. Muxamedova yakkaxon, jo‘rnavoz va ansambl ishtirokchisi sifatida serhosil kontsert-ijrochilik faoliyat olib bormoqda. U turli xil Xalqaro tanlov va festivallarda, jumladan, Italiya, Gretsiya, Rossiya, Ozarbayjon, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston kabi mamlakatlarda yakkaxon ijrochi va jo‘rnavoz sifatida ishtirok etgan. 2022 yil Rossiyaning Qozon shahrida bo`lib o`tgan Xalqaro musulmon madaniyati festivalida pianinochi sifatida qatnashgan.



F.Muxamedova turli yillarda taniqli dirijerlar A.Ergashev, E.Azimov, A.Raimjanov, K.Urinbayev, A.Shoxakimov, B.Xudoykulov rahbarligidagi orkestrlar bilan I.S.Bax, V.Motsart, F.Shopen, R.Shuman, S.Frank, A.Shnitke kabi kompozitorlarning fortepiano va orkestr uchun kontsertlarini ijro etgan. Shuningdek, “Oltin kuz”, “Davr sadolari”, Jahon simfonik musiqasi festivali, «Kontinent FA» kabi festivallarda, “Ustoz - shogird”, “XX asr shedevrlari” kabi tadbirlarda faol ishtirok etgan. F.Muxamedova O‘zbekiston kompozitorlari fortepiano musiqasining targ‘ibotchisi bo‘lib, u



R.Abdullayev, D.Omonullayeva, A.Mansurov, O.Abdullayeva, D.Zakirova kabi kompozitorlarining asarlarini ijro etib kelmoqda.



F.Muxamedova ilmiy-tadqiqot, pedagogik faoliyat bilan bir qatorda jo‘rnavoz sifatida ham faol ijod qilib, turli xil Xalqaro (Moskva, Sankt-Peterburg, Baku, Astana, Chimkent, Bishkek) va Respublika tanlovlarda erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun “Eng yaxshi kontsertmeyster” diplomlari, Madaniyat va Sport ishlari vazirligining “Tasanno” sertifikati, faxriy yorliqlar va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

F.Muxamedova ilmiy-ijodiy faoliyat bilan bir qatorda tashkiliy ishlarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Jumladan, 2020 yildan O‘zDK Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i sifatida talabalar o‘rtasida turli xil tanlovlar, Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalar va boshqa bir qator tadbirlarni tashkil etgan. H.Olimjon, B.Zokirov ijodiga bag‘ishlangan Respublika talabalar konferentsiyasi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining 85-yilligiga bag‘ishlangan Xalqaro yosh olimlar konferentsiyalari maqolalar to‘plamining bosh muharriri bo‘lgan.

2020 yilda ZiyoForum Respublika ilm-fan va ta'limni rivojlantirish fondi tomonidan tashkil etilgan “100 ta yosh tadqiqochilar” loyihasida ishtirok etib, bir qator tadbirlarda «O‘zbekiston fortepiano san'ati» mavzusidagi taqdimot-ma'ruzasi bilan ishtirok etgan.

Muxamedova Feruza Nurmaxmatovna hozirgi kunda O`zbekiston davlat konservatoriyasi “Maxsus fortepiano” kafedrasi dotsenti hamda O`zDK qoshidagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san`ati instituti Magistratura bo`limi boshlig`i sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. 2020 yildan F.Muxamedova O‘zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, “Musiqa”, Eurasian music science journal, “Science and innovation” jurnallarida tahririyat a'zosi sifatida faoliyat yuritmoqda.



TO‘XTAYEV SARDOR SULTON O‘G‘LI

Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti 2-kurs talabasi

- O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yosh maslahatchilar Kengashi Toshkent shahar vakili.
- 2022-yil iyun oyi Xalqaro “Rossiya iste’dodlari” tanlovi g’olibi.
- 2022-yil 5-iyun kuni “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovida munosib taqdirlangan.

To’xtayev Sardor Sulton o’g’li 2021-yil mart oyida xalqaro darajadagi IELTS sertifikatini qo’lga kiritdim. 2021-yil iyun-avgust oylariga bir qator xorijiy va O’zbekiston respublikasi OTMlariga hujjat topshirdim. Hayratlanarlisi shundaki, 20ta xorijiy va O’zbekiston universitetlariga talabalikka tavsiya etildim. Xorijiy davlatlarning turlicha miqdordagi taklif etgan



grandlariga qaramay, Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universitetini tanladim. Bu yangilik Qashqadaryo viloyati Xalq ta’lim Vazirligi tomonidan mamnuniyat bilan ijtimoiy tarmoqqa chiqarildi.

Hozirgi kunda To’xtayev Sardor Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti 2-bosqich talabasiman. Men ilmiy maqolalar yozish bilan ham shug’ullanaman. Mening “Tasavvurimda Jonajon O’zbekiston” nomli maqolam Rossiya davlatining "Образование и наука в XXI веке" jurnalida nashr etildi.

Shuningdek “Jahon miqyosida yuridik ta’lim: muamolar va ularning yechimlar” nomli ilmiy maqolam Polshaning "Modern scientific challenges and trends" jurnalida nashr etildi va shuningdek “Maqsad sari intilish uchun kuchli motivatsiya” nomli maqolam Respublikamizning “Eurasian journal of Law, Finace and Applied science” jurnalida nashrdan chiqdi. Bundan tashqari Mening “Xorijiy davlatlarda yuridik ta'lim” ilmiy ommabop maqolam Nurafshon gazetasida nashr etildi va O’zbekistonda saylov arafasida “O’zbekistonda saylov tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar” nomli

maqolam Xalqaro Germaniya konferensiyasining ilmiy to’plamiga kiritildi va sertifikat bilan taqdirlandim.

Shuningdek “Muvafaqiyat sari yo’l” nomli maqolam “Voha” gazetasida nashr etildi. Bundan tashqari “Imkoniyat va e’tirof”



nomli maqolam “Navqiron“ gazetasida nashr etildi. Mening “Huquqning jamiyatdagi o'rni” nomli maqolam Rossiya davlatining "Студенческий вестник" nomli jurnalida nashr etildi va bundan tashqari “Huquqning jamiyatdagi o'rni” ilmiy maqolam “O'zbekistonda taraqqiyot va milliy innovatsiyalar” jurnali va Amerika Qo’shma Shtatlarining “Texas“ va “Galaxy” jurnalllarida va Xalqaro Daniya va Turkiya konferensiyasida ham e’lon qilindi. Bundan tashqari Mening “Ona tilimiz taqdiri bizning qo'limizda“ Xalqaro Daniya konferensiyasi uchun qabul qilinib, chop etildi. Mening “Inson huquqlarini himoya qilish va ularni qadrlashning ahamiyati” nomli ilmiy maqolam Xalqaro Italiya va Ukraina jurnalida nashr etildi. Shuningdek mening “Jamiyatni yangilanish sharoitida insonlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlashning dolzarb masalalari” nomli ilmiy maqolam "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)" ilmiy jurnalining (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish agentligining 1438-sonli Guvohnoma hamda ISSN 2181-2454, www.carjis.org veb sayti) 2-tom 1-soni uchun qabul qilinib, e'lon qilindi va sertifikat bilan taqdirlandi.

2021-yil 31-oktabr kuni MDH davlatlari bo’yicha tashkil etilgan “Yilning eng yaxshi ilmiy maqolasi - 2021” xalqaro tanlovda



g’oliblikni qo’lga kiritib, sertifikat, diplom, medal va kitob bilan taqdirlandim.

Shuningdek, men Rossiyaning Penza shahrida o’tkazilgan XIX xalqaro ilmiy amaliy “Yil talabasi-2021” tanlovida ishtirok etib, g’olib bo’ldim. 20 dan ortiq ilmiy maqolalarim xorijiy va respublikamiz nufuzli jurnallarida nashr etilmoqda. Men 2021-yil noyabr oyida eng nufuzli xaqaro tanlovni ya’ni MDH davlatlari bo’yicha tashkil etilgan “Leader XXI Century, Best student - 2021” sovrindori bo’ldim. Bundan tashqari To’xtayev Sardorning ilmiy maqolasi «Innovative Academy» ilmiy tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash markazi, O’z-LIDEP Toshkent shahar kengashi va O’zbekiston yoshlar ittifoqi birlashgan holda o’tkazgan «Лучший инноватор в области и науки» xalqaro tanlovida sertifikat, medal bilan taqdirlanganman.

2021-yil 3-dekabr kuni Toshkent shahrida Toshkent shahar hokimligi, O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi tomonidan Konstitutsiyaga bag’ishlab tashkil etilgan “O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - mamlakat taraqqiyoti va



jamiyat farovonligini huquqiy kafolati” mavzusida o’z ilmiy maqolam bilan ishtirok etib, sertifikat, ilmiy anjuman ishtirokchilari maqolalari jamlangan kitob, esdalik sovg’alar bilan taqdirlandi. Shunindek, 2022-yilda ilmiy maqolasi "Развитие современной юриспруденции актуальные вопросы теории и практики" nomli xalqaro Rossiya to’plamida chop etildi va xalqaro diplom, tanlov ishtirokchilari maqolalari jamlangan kitob bilan taqdirlandim. Bundan tashqari yana bir ilmiy maqolam “XXI век: итоги прошлого и проблемы настоящего"" nomli xalqaro Rossiya to’plamida chop etildi va xalqaro diplom, tanlov ishtirokchilari maqolalari jamlangan kitob va spravka bilan taqdirlandim. Mening “Jamiyatning yangilanishi sharoitida insonlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashning dolzarb masalalari“ nomli ilmiy maqolam MDH davlatlari bo’yicha tashkil etilayotgan “Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi“ xalqaro ilmiy maqolalar tanlovi uchun qabul qilindi va bu tanlov «Best Publication» ilmiy tadqiqotlar markazi, Xalqaro diplomatlar kengashi, O'zbekiston XDP Farg'ona viloyat kengashi, EventGo portali, Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan tashkil etildi. 2022 - yil mart oyida O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yosh maslahatchilar Kengashi Toshkent shahar vakili etib tayinlandim. 2022-yil 5-iyun kuni “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari



uchun” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik tanlovida munosib taqdirlandim. 2022-yil iyun oyida Xalqaro “Rossiya iste’dodlari” tanlovida 1-darajali diplom bilan taqdirlandim. 2022-yil oktabr oyidan boshlab O’zbekiston Respublikasi Sud tizimida amaliyotni boshladim.



XOLMURODOVA DILNOZA XOLMUROD QIZI

Samarqand davlat chet tillar institutining “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogikasi” kafedrasi dotsenti v.b.
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

- “Textbook for medical students” nomli o‘quv metodik qo‘llanmasi nashrdan chiqqan.
- 30 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy maqolalar muallifi.

Xolmurodova Dilnoza Xolmurod qizi 1986-yil 9-noyabrda Samarqand viloyati Samarqand shahrida tug‘ilgan.

1993-2003-yillarda Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 37-o‘rta maktabida a’lo baholar bilan o‘qigan.

2003-2007-yillarla Samarqand davlat chet tillar institutining filologiya mutaxassisligida tahsil olgan.



2007-2009-yillarda Samarqand davlat chet tillar institutining magistraturasida tahsil olgan.



Pedagogik faoliyatini 2008-yilda o‘zi tahsil olgan Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 37-o‘rta maktabida ingliz tili o‘qituvchisi sifatida boshlagan, 2009-2012-yillarda Samarqand davlat tibbiyot institutining “Tillar” kafedrasida ingliz tili o‘qituvchisi, 2012-2016-yillarda Samarqand davlat chet tillar institutining “Ingliz tili tarixi va grammatikasi” kafedrasida ingliz tili o‘qituvchisi, 2016-yildan Samarqand davlat chet tillar institutining “Ingliz tili o‘qitish metodikasi va amaliyoti” kafedrasida katta o‘qituvchi, 2022-yildan Samarqand davlat chet

tillar institutining “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogikasi” kafedrasi v.b dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda. 2022-yil sentabr oyida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga musharraf bo’ldi.



Xolmurodova Dilnoza Xolmurod qizi Challenges in teaching speaking to EFL learners, Oliy ta‘lim muassasalarida uzluksiz ta‘lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, Oliy ta‘lim muassasasi talabalarining til qobiliyatlari rivojlanish jarayonining shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlili, Challenges in teaching speaking to EFL learners, An analysis of students’ speaking ability on specific, Purpose of learning Issues in Teaching Speaking to EFL Learners, Needs Analysis for Developing Speaking Skills of Medical Students, Oliy ta’lim muassasalarida o’quv-tarbiya jarayonida talabalar til qobiliyatini rivojlantirish pedagogik asoslarini ishlab chiqish, Importance and benefits of teaching communications skills to medical students, Issues in teaching speaking to EFL learners, Talabalarning til qobiliyatini rivojlantirishdagi pedagogik muammolar, Activities to promote speaking in a second language, Talabalarning til qobiliyati fenomenini nazariy o’rganish kabi 30 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi.



2021-yilda “Textbook for medical students” nomli o‘quv metodik qo‘llanmasi nashrdan chiqqan.

Xolmurodova Dilnoza Xolmurod qizi oilali, 2 nafar farzandi bor.



DEHQONOV JAVOHIR MIRZALI O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti dotsenti

- Termiz davlat universiteti fizika va matematika fakultetida yoshlar masalalari, ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari.
- Xalqaro toifadagi sport ustasi.
- Taekvondo ITF yo‘nalishi bo‘yicha 4-DAN qora belbog‘ sohibi.
- ko‘p karra O‘zbekiston chempioni va xalqaro musobaqalar ishtirokchisi.

Dehqonov Javohir Mirzali o‘g‘li 1991 - yil 26 - iyulda Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida ziyoli oilada tug‘ilgan. Millati o‘zbek, ma’lumoti oliy O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

1998-2001- yilning Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani 17-o‘rta ta’lim maktabida o‘qigan.

2001-2007- yillarda tanlov asosida Uchko‘prik tumanidagi “Ziyo” iqtidorli bolalar maktab internatida ta’lim olgan.

2007-yilda tanlov asosida Farg‘ona harbiy - texnika yo‘nalishidagi akademik litseyga o‘qishga kirgan hamda uni 2010 - yilda tamomlagan.

2013-yil Toshkend shahridagi 71186-sonli harbiy qismda telefonist lavozimida muddatli harbiy xizmatni o‘tadi.

2013-2017-yillarda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti yakka kurash sport turlari fakulteti taekvondo WTF yo‘nalishida o‘qidi.



2013-2017-yillarda Taekvondo sport turi boyicha milliy terma jamoa safida shug‘ullangan. Sport sohasida quyidagi yutuqlarga erishgan: Xalqaro toifadagi sport ustasi, Taekvondo ITF yo‘nalishi bo‘yicha 4-DAN qora belbog‘ sohibi, ko‘p karra O‘zbekiston chempioni va xalqaro musobaqalar ishtirokchisi bo‘lgan. 2015-yili Janubiy Koreyaning Geongju shahrida o‘tkazilgan “Geongju open” musobaqasida 87-kg vazn toifasida faxrli 3-o‘rinni, 2016-yili Birlashgan arab amirligida o‘tkazilgan

“Fujairah open” musobaqasida 87 kg vazn toifasida faxrli 3-o‘rinni egallagan.



2017-2021-yillarda Toshkent shahar Uchtepa tumani 2-sonli bolalar va o‘smirlar maktabida taekvondo sport turi bo‘yicha murabbiy bo‘lib ishlagan.

2018-2019-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida iqtidorli yoshlar bilan ishlash ma’naviy marifiy ishlar bo‘yicha yetakchi mutaxassis.



2019-2020-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti sport kompleksida muhandisi lavozimida ishlagan.

2019-2021-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti sport inshootlari mudiri hamda, Taekvondo va sport faoliyati fakultetida stajyor o‘qituvchi bo‘lib ishlagan.

2018-2020-yillarda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida sport menejmenti bo‘yicha magistratura mutaxassisligini tamomlagan.



2021-yil 30-iyun kuni dotsent ilmiy unvonini olgan. Uzunlikka sakrovchilarning mashg‘ulot jarayonida tezkorlik-kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyati, Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarni jismoniy tarbiya sifatlari hamda estetik hususiyatlarini rivojlantirishda harakatli o‘yinlarini o‘rni va amaliy ahamiyati, Volebol tarixi rivojlanishi va musobaqa qoidalari haqida tushunchalar, Gandbol sport turning rivojlanishi tarixi va istiqbollari “Muallim ham uzluksiz bilim beradi,, ilmiy - metodik jurnali, Yuqori malakali taekvondochilarni musobaqa qoidalarining o‘zgarishiga xos ravishda jismoniy tayorgarligini oshirish yo‘llari, Yuqori malakali taekvondochilarning jismoniy tayorgarligini oshirishning samarali usullari “Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi” mavzusida Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyalarida chop etilgan maqolalar muallifi hamdir.

2021-2022-yil Termiz davlat universitetida xo‘jalik bo‘lim boshlig‘i.



2022-yildan hozirgi kunga qadar Termiz davlat universiteti fizika va matematika fakultetida yoshlar masalalari, ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari hamda sport faoliyati va boshqaruv fakultetida dotsent vazifasida ishlab kelmoqda.




OMONBOYEVA MERUERT ERKIN QIZI

Navoiy dalat pedagogika institute Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (Matematika) mutaxassisligi magistranti

- “Tadbirkor qizning eng yaxshi loyihasi-2017” tanlovining Respublika boshqichi g‘olibasi.
- Navoiy viloyati hokimi tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlangan.
- 50 dan ortiq ilmiy maqolalari Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida va jurnallarida chop ettirilgan.

1998-yil 12-mayda Navoiy viloyati Nurota tumani Temirqovuq shaharchasida tug‘ilgan, millati qozoq.

Omonboeva Meruert Erkin qizi 2014-yil Navoiy viloyat Nurota tumani 2-Nurota qishloq ho‘jalik kasb-hunar kollejining aniq fanlar (informatika) yo‘nalishini a’lo baholar bilan tugatib, 2017-yil Navoiy davlat pedagogika instituti Fizika-matematika fakulteti Matematika o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishiga test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, to‘lov shartnoma asosida o‘qishga qabul qilingan. Ushbu fakultetni 2021-yilda imtiyozli diplom bilan tamomlagan. U fikrining teranligi, so‘zga chechanligi, bilimliligi tufayli tengdoshlari orasida tezda ko‘zga tashlanib, professor-o‘qituvchilar va talabalarning hurmatini qozongan iqtidorli talabalardan biri bo‘lgan.



Omonboeva Meruert Erkin qizi birinchi kursdan o‘qish jarayonida ilmga intilishi, qiziquvchanligi bilan alohida ajralib turardi, o‘sha davrdan boshlab “Fizika va astronomiya fanlarini o‘rganishda matematik amallardan foydalanish metodikasi” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Uning 50 dan ortiq ilmiy maqolalari Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida va jurnallarida chop ettirilgan. Oliy ta’lim muassasasi, viloyat, mintaqa va Respublika miqyosidagi ilmiy to‘plamlar va jurnallarda muntazam ravishda Omonboeva Meruet ilmiy maqolalari bilan faol


ishtirok etib kelmoqda.

Ilmiy maqolalari ayni vaqtdagi dolzarb



mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan hamda o‘qitish jarayoni uchun zarur ma’lumotlarga boy.

Shuningdek, yosh ijodkorning “Matematika fanining extimollari nazariyasi va matematika statistika bo‘limi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar bajarish” nomli uslubiy qo‘llanmasi NavDPI Fizika-matematika fakulteti Kengash yig‘ilishining 23.05.2020-yilning 10-sonli karori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan. Shu bilan bir katorda o‘zining ilmiy ishi yuzasidan “Matematika fizika



tenglamalari bo‘limi” bo‘yicha amaliy uslubiy qo‘llanmasi esa NavDPI Fizika-matematika fakulteti Kengash yig‘ilishining 23.05.2020-yilning 10-sonli karori bilan tasdiqlangan. Omonboeva Meruert Erkin qizi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda tajribaga ham ega. Hozirgi kunda bu borada ham yetarlicha yutuqlarni qo‘lga kiritgan. “Quyosh va uning tuzilishi” nomli elektron o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi, Sanoat namunalari bo‘limi tomonidan EHM uchun dasturi rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Institutimizning faol, intiluvchan talabalaridan biri bo‘lgan Omonboeva Meruert o‘z ilmiy izlanishlaridan tashqari, o‘zining tadbirkorligini ham yo‘lga qo‘ygan va bu borada bir necha tanlovlar g‘olibi hisoblanadi. Bular “Tadbirkor qizning eng yaxshi loyihasi-2017” tanlovining Respublika boshqichi g‘olibi, 2017-yil “Qishloq ho‘jaligi sohasida eng yaxshi tadbirkor qiz” nominatsiyasi g‘olibasi bo‘lgan.



2017-yil O‘zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi tomonidan tashkil yetilgan “Boshlang‘ich tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish” shiori ostida o‘tkazilgan yoshlar festivalini yuqori darajada tashkillashtirishda faol ishtiroki uchun Navoiy viloyati hokimi tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2018-yil Viloyat miqyosida o‘tkazilgan

“Muvaffaqiyatga erishish sirlari” mavzusida mahorat darslarida faol ishtirok etganligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan. 2018-yil O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish Respublika Markazida bo‘lib o‘tgan “Tadbirkorlik asoslari” yo‘nalishi bo‘yicha 22 soatlik, qisqa muddatli o‘quv kursini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat bilan taqdirlangan.



SHERNAZAROV FARRUX FARHOD O‘G‘LI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 5-kurs talabasi

- MDH mamlakatlari IV Xalqaro kitob binosining ilmiy bazasini shakllantirishga qaratilgan “BEST STUDENT-2022” tanlovi 2-o’rin sohibi
- ”Sog’lom Hayotuz” telegram kanali asoschisi va boshqaruvchisi
- O’zbekiston, O’rta Osiyo va Yevropaning bir qator mufuzli bazalarida indeklanadigan jurnallarda 20 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi.

Men Shernazarov Farrux Farhod o’g’li Samarqand viloyati Urgut tumanida 1995-yil tug’ilganman 2002 - yil 98 - umum ta’lim maktabiga qabul qilinib, 2011 - yil Samarqand davlat chet tillar qoshidagi 1-sonli akademik litseyga o’qishga qabul qilindim. 2018-yil O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni Saqlash Vazirligi Samarqand davlat tibbiyot universiteti 18835-sonli talabalik guvohnomasi asosida talabalikka qabul qilindim.

Hozirgi kunda Samarqand davlat tibbiyot universiteti 5-bosqich talabasiman. Men ilmiy maqolalar yozish bilan ham shug’ullanaman. Mening «Инфаркт миокарда - причины, симптомы, факторы риска, первая помощь, лечение и меры по снижению факторов риска» Образование и наука в XXI веке" jurnalida nashr etildi. Ushbu jurnalda 10 ga yaqin maqolalar chop etdim.

2021-yil dekabr oyida O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan Yoshlar forumida „**Onlayn tizimda ishlaydigan raqamli bemorlarni qabul qilish tizmini ishlab chiqish**” g’oyasi bilan ishtirok etib ushbu g’oya eng kuchli g’oyalar qatoriga kiritildi. Malumot o’rnida SSV tomonidan ham 394376883_11637-v/21 raqmli murojaat ijobiy qabul qilindi.



Shuningdek, Men Qozog’istonni Nur-Sulton shahrida o’tqazilgan MDH IV Xalqaro kitob nashri MDH va Yevropaning barcha mamlakatlaridan kelgan yosh talabalarning ilm-fan va shaxsiy muvaffaqiyatlarini targ‘ib

qilishga qaratilgan. MDH mamlakatlari IV Xalqaro kitob binosining ilmiy bazasini shakllantirishga qaratilgan “BEST STUDENT-2022 tanlovida ishtirok etdim.



Mazkur loyihada Qozog’iston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, O’zbekiston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Qirg’iziston Respublikasi, Belarus Respublikasi va boshqalarning yosh talabalari orasida ishtirok etib faxrli ikkinchi o’rinni oldim. Ushbu tanlovda ,,Gastritis causes, symptoms, diagnosis, treatment, medicines, complications, prevention” nomli maqola bilan ishtirok etib, ilmiy maqolam to’plami, faxrli ikkinchi darajali diplom, esdalik ko’krak nishoni va maxsus guvohnoma bilan taqdirlandim.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr Oliy Majlisdagi va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida 2021-yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yili deb e'lon qildi, va 2020-yil 25-dekabr O'zbekiston yoshlari forumida yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyatli va madaniyat egasi etib tarbiyalash borasidagi qator vazifa va loyihalarni belgilab berdi. Ushbu vazifalar ijrosini taminlash maqsadida Toshkent Farmatsevtika Instituti va Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti hamkorligida o'tkazilgan "Uchinchi renessansda Ibn Sino izdoshlari" mavzusidagi talabalar, magistrantlar, va yosh izlanuvchilar uchun respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ilmiy maqolam bilan faol ishtirok etib sertifikat bilan taqdirlandim.



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi kardiologlar assotsatsiyasi "Yurak-qon tomir kasalliklarini davolash va diagnostika innovatsion yondashuv mavzusidagi ilmiy amaliy anjumanda zamonaviy kardiologiyaning asosiy yo'nalishlari bo'yicha 16 (o'n olti) soatlik ma'ruzalar kursini tugatib sertifikatga ega bo’ldim.

Toshkent davlat stomatologiya insituti tomonida tashkil qilingan "Congenital and acquired defects of the face and deformities" which has held on November da ishtirok etdim va sertifikat bilan taqdirlandim.

Eurasian Scientific Herald open access, peer reviewed journal issn (e): 2795 – 7365 journal impact factor: 8.225 Berlin jurnalida ,,The Structure of the Heart and its Physiology in Regular Athletes’’ nomli maqolam jurnalda chop etilib sertifikat bilan taqdirlandim. Bundan tashqari «Интернаука» xalqaro jurnalida ,,Increased brain pressure - causes, symptoms, complications, treatment’ nomli maqolam chop etildi.

Bundan tashqari ilmiy maqolam «Innovative Academy» ilmiy tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash markazi, O’z-LIDEP Toshkent shahar kengashi va O’zbekiston yoshlar ittifoqi birlashgan holda o’tkazgan «Лучший инноватор в области и науки» xalqaro tanlovida ilmiy maqolam to’plami, xalqaro darajadagi diplom, esdalik ko’krak



nishoni va maxsus guvohnoma bilan taqdirlandim.

Hozirgi kungacha O’zbekiston, O’rta Osiyo va Yevropaning bir qator mufuzli bazalarida indeklanadigan jurnallarda 20 dan ortiq ilmiy maqolalarim chop etib kelinmoqda.

Salomatlikka oid bir qancha maqolalarim O’zbekistondagi eng foal saytlardan biri Kun.uz rasmiy sahifalarida shifokor sifatida maqolalarim chop etilib turadi.

Jahon Sog’liqni Saqlash Vazirligining „OPENWHO’’ platformasi tomonidan tashkil etilgan „My Courses’’ onlayn kurslarini muvaffaqiyatli tamamlab, 30 ga yaqin a’lo darajali sertifikatlar bilan taqdirlandim.

2019-2020 yillarda Covid - 19 pandemiyasi sababli insonlarni muammoli savollarini ijobiy hal qilish maqsadida butun O’zbekiston Respublikasi barcha hududlaridan 200 ga yaqin tibbiyot sohasidagi barcha mutaxasislarni bir joyga jamlash va ushbu tizimda boshchilik qildim.



Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 2022 - yil 13 - aprel kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetining navbatdagi Ilmiy kengashi bo‘lib o‘tdi. Ilmiy kengashda nomdor stipendiyalar sohiblari sifatida e’tirof etildim.

Zamon talabi bo’lgan bloggerli sohasiga qiziqqanim sababli tibbiy blogger sifatida bir qancha tibbiyot kanallariga egaman.

Hozirda Kun.uz loyihasidagi „Sog’lom Hayotuz’’ telegram kanalida shifokor sifatida muntazam salomatlik haqidagi maqalolarim chop etib kelinmoqda. Bundan tashqari 320 mingga yaqin auditoriyaga ega „Sog’lomHayot’’ muntazam salomatlikka oid tavsiyalar berish va „SoglomUZbot’’ orqali barcha murojaatlarni qabul qilish va tavsiyalar berib kelmoqdaman.



ABDULLAYEVA OZODA ODILJON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

- “Yil talabasi-2021” Respublika tanlovi “Yilning eng faol bilimdon talabasi” nominatsiyasi oliy ta’lim bosqichi g’olibi.
- Navoiy nomli Davlat stipendiyasi sohibi.
- “Yil talabasi-2022” Respublika tanlovi “Yilning eng faol targ’ibotchi talabasi” nominatsiyasi oliy ta’lim, viloyat bosqichi g’olibi.
- 50 ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi.
- “Tashabbuskor yoshlar” klubi asoschisi.

Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi 2000-yilda Toshkent viloyati Parkent tumanida tavallud topgan. Toshkent viloyati Parkent tumanida istiqomat qiladi.

Abdullayeva Ozoda 2007-yil Parkent tumanidagi 26-umumiy o‘rta ta’lim maktabiga 1-sinfga qabul qilinib, 2016-yilda a’lo baholar bilan tugatgan.

2019-yilda Parkent Agrosanoat kasb hunar kollejining “Kompyuter injineringi texnigi” yo‘nalishida tahsil olib, imtiyozli tamomlagan. Ozoda yoshligidanoq ona tili va adabiyot fanlariga juda qiziqqan va shu fandan maktab, kollej davridanoq olimpiadalarga muntazam qatnashib kelgan hamda yuqori natijalarga ega bo‘lgan. Jumladan, 2018-yilda ona tili fan olimpiadasida ishtirok etib, hudud bosqichida faxrli o‘rinni egalladi va viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi, shuningdek, viloyat bosqichida ham munosib ishtirok etdi.

Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi a’lo o‘qishi hamda tirishqoqligi sababli dastlabki urinishdayoq Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishiga talabalikka tavsiya etildi.

Abdullayeva Ozoda universitet hayotida faol talabalardan hisoblanadi. Jamoat ishlariga mas’uliyat bilan yondashishi, zehnliligi, tirishqoqligi, ilmga chanqoqligi, tashabbuskorligi, liderlik qobiliyati, namunali xulqi, barcha fanlardan a’lo baholarga o‘zlashtirishi va faolligi bilan o‘zini namoyon qila oladi. Barcha talabalar va universitet jamoasi bilan samimiy muloqot o‘rnata oladi.

O‘quv mashg‘ulotlarida o‘zining faolligi bilan qatnashadi hamda jamoat ishlarida, tadbirlarda, targ‘ibot ishlarida mas’uliyatni his qila olishlik qobiliyati va guruhni o‘z ortidan ergashtira olishi bilan birgalikda yaxshi tashkilotchi hisoblanadi. Fakultet, universitet va respublika doirasidagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar, onlayn

olimpiadalar, xalqaro konferensiyalar, onlayn sammitlar, ilmiy-amaliy anjuman, onlayn vebinarlar va forumlarning ishtirokchisi, shu bilan birgalikda sovrindori hamda faol tashkilotchisidir.

Abdullayeva Ozoda universitet va boshqa tashkilotlar tomonidan o‘tkazilib kelinayotgan ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. “Talabalikka bag‘ishlov”, “9-may – Xotira va qadrlash kuni”, “Bir oyda 10 kitob, 1 yilda 100 kitob bilan do‘stlashdim”, “Zukko kitobxon”, “Universiada-2022”, “Yoshlar forumi”, “Til dekadasi” va boshqa ko‘plab tadbirlar shular jumlasidandir.



80 dan ortiq guvohnoma, sertifikat, tashakkurnoma, diplom, tavsiyanoma, faxriy yorliq hamda minnatdorchilik xatlarining sohibasi. 20 dan ortiq xalqaro konferensiya, onlayn sammit, xalqaro forum, ilmiy-amaliy anjuman, vebinar, master-klass, seminar-trening, muhokama, xayriya marafon, musobaqa, onlayn tanlov hamda olimpiadalarning ishtirokchisi, sovrindori va tashkilotchisi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan **“Ilhom”** tanlovida universitet miqyosida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, Respublika bosqichiga tavsiya etilgan hamda Respublika bosqichida ishtirok etgan.

“Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovi universitet bosqichida faol ishtirok etib, III darajali diplom bilan taqdirlangan.

Universitet miqyosida o‘tkazilgan **“Hokim stipendiyasi”** tanlovida faol qatnashgan.

“Yil talabasi – 2021” Respublika tanlovining **"Yilning eng faol bilimdon talabasi" (o‘z mutaxassisligi bo‘yicha)** nominatsiyasi universitet bosqichi g‘olibi bo‘ldi.

2021-yilda Gumanitar fanlar fakultetida **“Vatan – sen yagona”** nomi ostida o‘tkazilgan audioshe’rlar tanlovida I darajali diplom bilan taqdirlangan.

Institutda o‘tkazilgan “Universiada-2022” doirasida sportning voleybol, basketbol va gandbol turi bo‘yicha **“Gumanitar fanlar fakulteti qizlar”** jamoasi bilan ishtirok etib faxrli II va III darajali diplom bilan taqdirlangan.

Universitetda 21-oktabr - “O‘zbek tiliga davlat tili” maqomi berilganining 32 yilligi munosabati bilan Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi kafedralari tomonidan tashkil etilgan “Til dekadasi” doirasida o‘tkazilgan turli tanlov va targ‘ibot tadbirlarning faol tashkilotchisi hamda **“Ilmiy maqolalar”** tanlovi II darajali diplom sohibasi.

Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash uchun joriy qilingan **Navoiy nomli Davlat stipendiyasi sohibi** bo‘ldi.

Ozoda Abdullayeva tomonidan 2022-yilda 2 ta klub faoliyati hamda 8 ta targ‘ibot loyihalari amalga oshirilgan bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni ilm-fanga qiziqtirish, yoshlarning tashabbuskorligini oshirishga qaratilgan.

Ozoda Abdullayeva nafaqat universitet yoshlarining balki maktab labaratoriyasi doirasidagi turli hududlardagi xususan, Chirchiq, Parkent, Yuqori Chirchiq, Bo‘stonliq

maktablari o‘quvchi-yoshlari bilan samarali targ‘ibot ishlarini amalga oshirib keldi.



Abdullayeva Ozoda tomonidan tashkil etilgan **“Tashabbuskor yoshlar”** klubi samarali faoliyat yuritib, 150 dan ortiq yoshlar orasida ilm-fan, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha targ‘ibot jarayonlari tashkil etildi.

Klub a’zoligiga 15 nafar talaba-yoshlar qabul qilingan bo‘lib, ular bilan birgalikda yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni tashabbuskorlikka chorlash, kitobxonlikka jalb qilishga doir 10 ga yaqin targ‘ibot loyihalari amalga oshirilgan.

Ozoda Abdullayeva tashabbusi bilan tashkil etilgan **“Yosh tadqiqotchilar”** klubi doirasida esa ijtimoiy ish, tarix, xorijiy til, o‘zbek, qozoq, tojik tili yo‘nalishlarida sirtqi va kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oladigan talabalar bilan 10 dan ortiq seminar-treninglar tashkil etildi.

“Bugun o‘qigan – ertaga lider” nomli loyihasi doirasida maktab o‘quvchilarini OTMlarga qiziqtirish, kitobxonlikka jalb qilish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsad qilib olingan bo‘lib, unda Chirchiq, Parkent tumanidagi 5 ga yaqin maktabda uchrashuvlar tashkil etilgan, unda 400 dan ortiq maktab o‘quvchilari qamrab olingan.

“Ijtimoiy tarmoq - tashabuslar oynasi” nomli loyihasi orqali Ozoda Abdullayeva tomonidan turli kanal va guruhlar tashkil etilgan bo‘lib, unda 500 dan ortiq yoshlar jalb qilingan bo‘lib, turli tanlov, konferensiya, foydali ma’lumotlar hamda motivatsion postlar berib boriladi. Yoshlarni qiziqtirgan savollariga va muommolariga yechim beriladi.



Ushbu loyiha doirasida O‘zbekiston san’at va madaniyat instituti Nukus filiali 3-bosqich talabasi Ulug‘ova Nozima Baxtiyor qizi Ozoda Abdullayeva bilan hamsuhbat bo‘lib, u tomonida yaratilgan telegram ijtimoiy tarmog‘idagi kanal hamda guruhlar orqali kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ldi va savollariga javob oldi va shu orqali u ilmiy maqola yozish, uni chop etish ko‘nikmalariga ega bo‘lib, ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishdi.



Talabalarga Prezident hamda nomli davlat stipendiyalari haqida batafsil ma’lumot berish, ularni faollika targ‘ib qilish va shu orqali talabgor talabalar kontingentini shakllantirish maqsadida tashkil etgan

“Stipendiantlik sari ilk qadam” loyihasi doirasida 5 dan ortiq mahorat darslarini tashkil etdi.

Maktab labaratoriyasi doirasida olib borgan **“Adabiyot - qalbim quyoshi”** nomli to‘garak loyihasi o‘quvchilarni til va adabiyotga ko‘proq jalb qilish, yozuvchi shoirlarni hayotini chuqurroq o‘rgatish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, ushbu to‘garak Parkent tumanidagi 26-maktabda tashkil etilgan. To‘garakda 15 nafar o‘quvchilar tahsil olib, 5 nafar maktab bitiruvchisi talabalikka tavsiya etilgan.

“Ma’rifat targ‘ibotchilari” loyihasi doirasida faol talabalar bilan Toshkent viloyati tumanlaridagi maktablar, mehribonlik uylari, maktabgacha ta’lim muassasalari shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar maktablarida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlarni uyushtirish hamda ularni kitobxonlikka keng jalb etish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, 5 ga yaqin ta’lim muassasalarida faoliyat olib borilgan. Targ‘ibot jarayonida 20 dan ortiq kitoblar sovg‘a tariqasida o‘quvchilarga taqdim etilgan.

“Adiblar yoshlar nigohida” loyihasi doirasida o‘zbek adabiyotiga hissa qo‘shgan adiblarning tavalludini munosib nishonlash maqsadida 20 ga yaqin o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari bilan 50 ga yaqin talabalar va aholi orasida targ‘ibot faoliyati olib borildi.



“Maqsaddan muvaffaqiyatgacha” loyihasi talabalarni to‘g‘ri va aniq maqsad qo‘yishga chorlash, maqsadi yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni yengib o‘tishga doir kerakli ma’lumotlarni berish, muvaffaqiyatga erishish va turli tanlovlar uchun shaxsiy portfolio tayyorlash uchun kerakli ma’lumotlarni berish maqsadida tashkil etilgan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan universitetda tashkil etilgan 10 kunlik til dekadasida o‘zining **“Til targ‘ibotchilari”** loyihasi bilan faol qatnashdi. Bu loyiha doirasida o‘zbek va qozoq tili talabalaridan iborat guruhlar tashkil etib, Toshkent viloyatidagi Parkent, Yuqori Chirchiq, Bo‘stonliq hududlaridagi maktablarda targ‘ibot ishlarini olib bordi hamda tadbirlarda jamoasi bilan faol ishtirok etdi. Targ‘ibot jarayonlariga 100 ga yaqin maktab o‘quvchilari hamda tub aholi jalb qilindi.



Abdullayeva Ozoda “Yil talabasi-2022” Respublika tanlovining oliy ta’lim bosqichida faol ishtirok etib, **“Yilning eng faol targ‘ibotchi talabasi”** nominatsiyasi g‘olibiga aylandi.

Shuningdek, Toshkent viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari faol talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan **“Yil talabasi-2022”** tanlovida g‘olib bo‘ldi.

Abdullayeva Ozoda ijtimoiy hayotda faol bo‘lishi bilan birgalikda, ilmiy faoliyatni ham birdek olib boradi. Uning muallifligida turli xil jurnal hamda konferensiya materiallarida 50 ga yaqin xalqaro va respublika miqyosidagi maqola va tezislar nashr ettirilgan. Shulardan 20 ga yaqin maqolasi xalqaro jurnallar va konferensiyalarda

chop etilgan. Bundan tashqari Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda maqolalari e’lon qilgan.



Ozoda Abdullayeva tomonidan bugungi kunga qadar ilmiy izlanishlar natijalarini aks ettiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid muallifligidagi **“Adabiyot fanini zamonaviy usullarda o‘rgatish”** nomli dastur (DGU) guvohnomasiga hamda **“Xalqaro standartlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish (adabiyot fani misolida)”** mavzusida ma’lumotlar bazasi (BGU) guvohnomasiga ega.

Ilmiy faoliyatning yorqin misoli sifatida talaba Abdullayeva Ozoda Respublika Yosh olimlar kengashi a’zosi hisoblanadi. Shuningdek, **"Google Scholar"** xalqaro reyting tizimida o‘z shaxsiy profiliga ega bo‘lib, iqtiboslar soni 278 ta, h index 12, i10 index 13 ga teng.

Abdullayeva Ozoda ilmiy rahbari Qurbonova Maftuna Faxriddinovna - Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b. bilan **“PISA talablari asosida adabiyot darslarini tashkil etish metodikasi”** mavzusida ilmiy ishi ustida ishlamoqda.



Abdullayeva Ozoda ijodkor talaba ham hisoblanadi. Uning muallifligidagi hikoyalari ijtimoiy tarmoq oraqli universitet rasmiy kanallarida e’lon qilib boriladi. Universitet rektori tashabbusi bilan ijodkor yoshlarning ijod namunalari jamlanib **“Pedagog ilhomlari”, “Qalbim kuylari”** nomi ostida to‘plam sifatida nashr etilgan bo‘lib, bu to‘plamda Ozodaning ham ijodiy ishlari o‘rin olgan hamda universitet rektori tomonidan ota-onasiga tashakkurnoma taqdim etilgan.



Hozirgi kunda Ozoda Abdullayeva tomonidan talabalarni ilmiy faoliyatga qiziqtirish yuzasidan olib borayotgan targ‘ibot jarayonlari doirasida 5 dan ortiq yo‘nalishda 1-bosqichda tahsil olib kelayotgan 300 dan ortiq talabalar bilan seminar-treninglar tashkil etildi. Seminar-treningda talabalarga faoliyati davomidagi muvaffaqiyatga erishishida ilmiy faoliyatning ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berildi. Bundan tashqari, maqola va uning yozilishi, bakalavr talabasi uchun ahamiyati, uning o‘quv jarayoniga ta’siri, tezisning maqoladan farqli jihatlari, jurnallarda chop etish, undagi kamchiliklar, "yirtqich jurnallar"

to‘g‘risida ham tushunchalarga ega bo‘lishdi

Bugungi kunda Ozoda Abdullayeva o‘qish bilan birgalikda Chirchiq davlat pedagigika universiteti Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limida ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi lavozimida ish faoliyatini olib bormoqda.



RUSTAMOV JAVLON

Tashkent Kimyo International University Xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 2 - bosqich talabasi


- MDH miqyosida o‘tgazilgan “Ilm fan sohasidagi xizmatlari uchun” tanlovi g’olibi.
- “Tashabbuskor islohotchi” amaliy ko‘rik tanlovi g‘olibi va
- ko‘krak nishon sohibi.
- Qashqadaryo viloyati Oltin Qanot volontyorlari kordinatori.

2000-yil 11-avgustda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida tug‘ilgan. Chiroqchi tumanida joylashgan 160 umumiy o‘rta talim maktabida ilk boshlang‘ich ta’lim olgan va 2016-yil maktabni imtiyozli shaxodatnoma bilan tugatgan. Maktab davrida o‘zining tashabbuskorligi va intiluvchanligi bilan tengdoshlaridan ajralib turganligi uchun Kamolot YOIH maktab sardori bo‘lib faoliyat yuritgan. Arxitekturaga qiziqishi va qobiliyati borligi uchun respublika miqyosida o‘tkazilgan “Yurt kelajagi” iqtidorli yoshlar tanlovining “Arxitektura va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha “Shaharsozlik va landshaft” nominatsiyasida faxrli II o‘rini qo‘lga kiritgan.

2016-yil imtihon asosida Qarshi Transport kasb hunar kollejiga qabul qilinadi. Kollej davrida ham o’z iqtidorini namoyon qilib, o‘z ustida doimo ishlashi natijasi bilan sardorlar kengashi a’zosi bo‘ldi. 2017-2018 o‘quv yilidagi say harakati va izlanishlar olib borgani uchun O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqini Boshlang‘ich Tashkilotini faoliyatini namunali tashkil etishda va intiluvchanligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlandi. Qashqadaryo viloyat kasaba uyushmasi tashkilotlarining O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan insholar tanlovida faxrli I o‘rinni egalladi. Rustamov Javlon davlatinimiz ravnaqiga xizmatini siyosiy maydonda ham ko‘rsatish uchun 2018-yil 17-sentabrda O‘zbekiston XDP Qarshi shahar kengashi a’zosi bo‘lib qabul qilindi.



Vatan-muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir! Shu shiorni o’ziga maqsad qilgan Rustamov Javlon O‘zbekiston



Respublikasi Mudofaa Vazirligа qarashli Chaqiruvchilarni Harbiy Texnik Tayyorlash Markazida 2019-2020 o‘quv yilida uqib o‘z muttaxasisligini egalash bilan birga yana qo‘shimcha muttaxasisligni ham egalab ikki mutaxassisligini o‘rgandi. Markaz miqyosida guruhlar o‘rtasidagi “Ma’naviy va ma’rifiy a’lochi guruh” yo‘nalishida birinchi o‘rini egalladi. Umum jamoa hisobida faxrli 2 o‘rini qo‘lga kiridi. Shu uchun o‘quv yili so‘ngida markaz qo‘mondonligi tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Vatan himoyasiga chaqirilgan har bir o‘g‘lon labbay deb javob berishi darkor. Rustamov Javlon ham o‘z buchini bajarish uchun harbiy xizmatga yo‘l oldi va Ona Vatan uchun xizmatini 2020-2021-yillar davomida bajarib 2021-yil aprel oyida qaytdi. Xizmati davomida o‘z xizmatiga sadoqatini ko’rsatib xizmatdoshlari o‘rtasida alohida o‘rnak bo‘lganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 29 yilligi, 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan hamda Jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlikdan erishgan yutuqlari uchun qomondonligi tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlanadi. Xizmat davrida ham ilm olishni to‘xtatmagan Javlon xizmat yakunida OTM kirish uchun qo‘shimcha kvota beriladigan imtiyozga ega bo’ldi.

Rustamov Javlon xizmatdan qaytgandan so’ng unga Universal Temurbeklar harbiy sport maktabidan unga murrabiylik ishi taklif qildi. Endi u murrabiy bo‘ldi. Uning murrabiylik davrida shogirdlari orasidan “Universal jang” sport turi bo‘yicha O‘zbekiston va Jahon chempionlari yetishib chiqqanligi alohida e’tiborga sazovar jihati hisoblanadi.



Rustamov Javlon ish bilan birga ilm yo‘lidan bordi va 2021-yil 23-may da “Qit’alar aro yoshlar ilmiy amaliy konferinsiyasi”da va 2021-yil 20-aprel sanasida “Xalqaro ta’lim konferensiyasi”da o’z fikrlari bilan qatnashib yuqori natijalarni ko’rsatdi. 2021 - yilning 30 - iyun kuni “Maqsad sari ilk qadam” seminarlar forumida faol ishtiroki uchun ham taqdirlandi. O‘qish va ilm doimo kerak shu uchun Rustam Javlon Avstraliya davlatida joylashgan UKI

biznes Universitetida raqamli ko‘nikmalar va raqamli marketing yo‘nalishida o‘qidi hamda O‘zbekiston Volontyorlar Assotsatsiyasi Yosh volontyorlar va Oltin Qanot volontyorlari Qashqadaryo viloyati kordinatori bo‘lib faoliyat yuritib kelmoqda.

Rustamov Javlon tashabbusi bilan 2022-yil yozgi ta’til vaqtida Chiroqchi tumani ayrim moddiy ta’minoti kam yoshlar bepul “Boshlang‘ich kompyuter savodxonligi” o‘quv kursini muvaffaqiyatli tamomlab sertifikatlar bilan taqdirlandi. 2022 - yil 9 – 10 - aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida tashkil etilgan “Islohotchi yoshlar-2022” Respublika forumida ham faol ishtirok etdi va taqdirlandi.



2019-2022-yillar davomida "Sciense and education", "Galaxy International Interdissiplinary Research Journal", “So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi” Obrazovaniy i nauka v XXI veke", O‘zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar", "Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyada" maqollar va boshqa tezislar nashr etmoqda.

2022-yil mart oyida “Best publication” ilmiy tadqiqotlari markazi tomonidan MDH o‘rtasida o‘tkazilgan “Ilm fan sohasidagi xizmati uchun” amaliy ko‘rik tanlovda 1000 dan oshiq ilmiy maqolalar orasidan kuchli 100talikga kirib g‘olib bo‘lib “Ilm fan sohasidagi xizmati uchun” ko‘krak nishoniga sazovar bo‘ldi. Shu bilan yana izlanishi oshirdi va ikki kitob ustida faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Yilning sarhisobi yaqinlashishi bilan yana katta tanlovga start berildi 2022-yil avgust oyida “Best publication” ilmiy tadqiqotlari markazi tomonidan MDH o‘rtasida o‘tkazilgan “Tashabbuskor islohotchi” ko‘rik tanlovida o‘zining ilmiy maqolasi bilan qatnashgan Rustamov Javlon bu safar ham yana bir bor g‘oliblik nashidasini surdi va “Tashabbuskor islohotchi” ko‘krak nishoniga sazovor bo‘ldi.

Hozirgi kunda Tashkent Kimyo International University “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” yo‘nalishi 2 - bosqich talabasi va shu bilan Qashqadaryo viloyati Oltin Qanot volontyorlari kordinatori bulib faoliyat yuritib kelmoqda.

Mundarija

Rustamov Baxtiyor Normamatovich …….. 4
Xujanov Erkin Berdiyevich ……... 9
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich ……. 12
Usmonova Dilfuza Ilxomovna …… 15
Tojibaeva Nazokatxon Kobiljonovna ……. 19
Pirmanova Gavxar Nazarkulovna ……... 22
Sadullayev Sanjarbek Madiyarovich …….. 24
Raximova Nigina Murod Qizi ……. 27
Sobirova Gulnoza Raxmatilloyevna …… 32
Utayeva Iroda Baxodirovna ……. 35
Ruzikulova Nigora Shuxratovna ……. 37
Musayev Bekjon Shukurillayevich ……. 40
Eshmurodova Gulbahor Xushmurodovna ……... 43
Toshpo’latova Nargizaxon Mamarizayevna …… 46
Xushboqova Nigora G‘ayrat Qizi …… 50
Alimova Madinaxon Iskandar Qizi ……. 53
Jalolova Yulduz Muhiddin Qizi …….. 56
Teshaboyeva Nodira Djurayevna …… 59
Qodirova Gulnoza Qodirjonovna …… 64
Abdullayeva Xuriyatxon Zafarbekovna …… 67
Muxamedova Feruza Nurmaxmatovna …… 70
To‘xtayev Sardor Sulton O‘g‘li …….. 73
Xolmurodova Dilnoza Xolmurod Qizi …… 76
Dehqonov Javohir Mirzali O‘g‘li …… 78
Omonboeva Meruert Erkin Qizi …….. 81
Shernazarov Farrux Farhod O‘g‘li …… 84
Abdullayeva Ozoda Odiljon Qizi …… 87
Rustamov Javlon ……. 93

MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM biografik ensiklopediyasi 2022-yil to‘plami

Bosh muharrir
Rustamov B.N.

Mas’ul muharrir
Raxmatullayeva G.V.

Texnik muharir
Toqsanbayeva A., Qosimova O., Rustamov A.N.

Bosmaxonaga berildi: 12.12.2022. Bosishga ruxsat etildi: 15.12.2022.
“Times New Roman” garniturasi, Ofset bosma. Adadi: 500 dona.

“Science and innovation” MCHJ
Litsenziya №:038864 15.09.2022
Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.
Scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654